Пленум қарори 50 банддан иборат бўлиб, уни ишлаб чиқишдан мақсад — судлар томонидан процессуал қонун нормаларини бир хилда ва тўғри қўлланилишини таъминлашдан иборат.

Ҳужжатда апелляция, кассация тартибида суд қарорларини қайта кўришда келиб чиқадиган айрим процессуал масалалар бўйича зарур тушунтиришлар берилган.

Хусусан, унда апелляция, кассация инстанцияси судларида иш юритишнинг асослари келтирилган. Процессуал қонунда апелляция ёки кассация шикояти билан мурожаат қилиш ҳуқуқига эга бўлган шахслар рўйхати белгиланган бўлиб, шикоят бериш ҳуқуқи ушбу шахсларнинг ҳуқуқий ворисларига ҳам ўтиши қайд этилган.

Бундай ҳуқуқ вояга етмаган, васий ва ҳомийга эга бўлган шахсларнинг қонуний вакилларига ҳам берилган. Шикоят берувчи шахснинг вакилига нотариал тасдиқланган тарзда берилган ишончномада эса, шикоят бериш ва уни имзолаш каби ваколатлар махсус кўрсатилган бўлиши лозим.

Шунингдек, Пленум қарорида шикоят келтирилмайдиган суд ҳужжатлари, апелляция, кассация шикоятини (протестини) бериш тартиби, муддатлари, ушбу муддатларни ҳисоблаш, тиклаш, суд харажатларига доир масалалар юзасидан ҳам тушунтириш берилган. Шикоятни (протестни) қабул қилиш масаласини ҳал этиш,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

суд ҳужжатлари ижросини тўхтатиш, ишни биринчи инстанция қоидалари бўйича кўриш, далилларни текшириш, шикоят (протест) важларига ҳуқуқий баҳо бериш каби бошқа бир қатор масалалар юзасидан ҳам тушунтиришлар берилган.

2024 йил 1 январга қадар амалда бўлган фуқаролик процессуал қонунчилигига кўра, апелляция шикоятини (протестини) қабул қилиш масаласи ишни кўрган суд томонидан амалга ошириб келинган.

Эндиликда бу ваколат вилоят ва унга тенглаштирилган апелляция, кассация инстанцияси судининг судьясига берилди.

Шу сабабли тушунмовчиликларнинг олдини олиш мақсадида Пленум қарорида апелляция, кассация шикоятини (протестини) йўллаш ва юбориш, ишни кўрган суд эса, шикоятни (протестни) иш билан бирга вилоят ва унга тенглаштирилган судга юбориш тартиби юзасидан аниқ тушунтириш берилгани жуда муҳим. Қарорда суд ҳужжатини қабул қилган суд берилган шикоятни (протестни) процессуал қонуннинг бирон-бир талабларига мос эмаслиги асоси билан қайтариш масаласини ҳал қилишга ҳақли эмаслиги тушунтирилган.

Маълумки, процессуал қонунда апелляция, кассация шикоятини (протестини) бериш муддатлари бир ва олти ой деб белгиланган. Ушбу муддатларни тиклашни апелляция, кассация инстанцияси судининг судьяси якка тартибда ҳал қилади.

Қонун ҳужжатларида бу муддатларни тиклаш учун асослар, сабаблар ва омиллар келтирилмаганлиги боис бир хил суд амалиётини яратиш қийин кечаётган эди. Шунинг учун қарорда шикоят билан мурожаат қилиш муддатини тиклаш масаласини ҳал қилишда бунга тўсқинлик қилган объектив ҳолатларга қандай омиллар кириши, хусусан, жисмоний шахсларнинг касаллиги, оилавий аҳволи ва бошқа ҳолатлар узрли сабаблар ҳисобланиши тушунтирилиб, судьянинг муддатни тиклаш ҳақидаги хулосалари шикоятни (протестни) қабул қилиш, қабул қилишни рад этиш ҳақидаги ажримларда асослантирилиши лозимлиги кўрсатилган.

Шу билан бирга, Фуқаролик процессуал кодексида белгиланган шикоят (протест) бериш муддатларини тиклаш учун уч ой қатъий ҳисобланиши қайд этилган. Ушбу уч ойлик муддат ўтгандан сўнг берилган шикоят (протест) бўйича процессуал муддат тикланмайди.

Пленум қарорида шикоят (протест) бериш муддати узрли деб топилган сабабларга асосан тикланганда, иш бўйича бошқа шахслар томонидан ўтказиб

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

юборилган муддатни, ўтказиб юборилиши сабабларидан қатъи назар, тиклаш тўғрисидаги масалани қўшимча равишда ҳал қилиш талаб этилмаслиги ҳам батафсил тушунтирилган. Бундай шикоят (протест) тегишли талабларга риоя этган ҳолда апелляция, кассация муҳокамаси тугаганига қадар шу инстанция судига берилиши мумкин ва умумий асосларда кўриб чиқилиши лозим.

Чунки апелляция, кассация инстанцияси суд ҳужжатини шикоятда (протестда) келтирилган важлар доирасида эмас, тўлиқ ҳажмда текшириб чиқиши шарт бўлиб, битта ёки бир нечта шахс томонидан шикоят (протест) берилишидан қатъи назар, суд ҳужжатининг қонунийлиги, асослилиги ва адолатлилиги тўлиқ текширилади.

Пленум қароридаги асосий тушунтиришлардан яна бири процессуал қонунчиликка киритилган янги процессуал ҳаракат, яъни фақат апелляция, кассация инстанция судлари ваколати ҳисобланган ишни биринчи инстанция судида иш юритиш қоидалари бўйича кўриш тартибидир. Бу норма бошқа процессуал қонунлар қаторида Фуқаролик процессуал кодексига ҳам киритилган бўлиб, Пленум қарорида айнан шу тартибда иш юритиш қоидалари ёритилган.

Хусусан, қонунга кўра, учта ҳолатда:

биринчидан, билдирилган талаб бўйича суд томонидан қарор қабул қилинмаган бўлса;

иккинчидан, иш судда иштирок этиш ҳуқуқига эга бўлган, аммо суд мажлисининг вақти ва жойи тўғрисида хабардор қилинмаган шахсларнинг йўқлигида кўрилган бўлса;

учинчидан, ишда иштирок этишга жалб қилинмаган шахсларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари тўғрисидаги масала ҳал қилинган бўлса, ишни биринчи инстанция судида иш юритиш қоидалари бўйича кўришга йўл қўйилади.

Айнан шундай процессуал хатоликларга йўл қўйилгандагина суд ишни янгидан кўришга юбормасдан, биринчи инстанция судида иш юритиш қоидалари бўйича кўришга ўтиши ва бу ҳақида асослантирилган ажрим чиқариши лозим.

Пленум қарорида ушбу процессуал ҳаракатнинг яна бир муҳим жиҳати кенг ёритилган. Яъни ишда иштирок этишга жалб қилинмаган ёки хабардор қилинмаган шахслар апелляция, кассация инстанциясида қатнашганда улар томонидан биринчи инстанция судида муҳокама предмети бўлмаган, жумладан, қарши даъво тартибида келтирилган янги моддий-ҳуқуқий даъво талаблар, шунингдек, даъво муддатини

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

қўллаш ҳақидаги талаблар қўйилган бўлса, суд томонидан бу талаблар қабул қилиниши ва кўрилиши лозимлиги тушунтирилди.

Шу билан бирга, Пленум қарорида бошқа бир қатор процессуал ҳаракатларга оид тушунтиришлар ҳам берилган. Ҳужжат суд ишни кўришда аниқлаши лозим бўлган ҳолатлар, далилларни текшириш, шикоят (протест) важларини тўлиқ ўрганиш ва уларнинг ҳар бирига тегишли ҳуқуқий баҳор бериш, моддий ва процессуал ҳуқуқ нормаси бузилиши ёки нотўғри қўлланилиши ҳолатларининг тўғри талқин қилинишига бағишланган.

Ушбу Пленум қарори фуқароларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини суд орқали ишончли ҳимоя қилишга қаратилган. Бу ҳужжат судларнинг процессуал қонунни тўғри қўллаши учун муҳим ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.

## Фуқаролик ишларини тафтиш тартибида қайта кўришнинг ўзига хос жиҳатлари ва такомиллаштириш масалалари

Ўзбекистон Республикаси суд-ҳуқуқ ислоҳотлари судларни фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилувчи орган сифатида халққа янада яқинлаштирди. Суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлаш ҳамда судлар фаолияти самарадорлигини ошириш имконини берадиган муҳим ўзгаришлар амалиётга жорий қилинди.

Судлар фаолиятига суд қарорларининг қонуний, асосли ва адолатлилигини текширишнинг фуқароларга қулай янги тартиби жорий этилди.

Процессуал қонунчиликка суд қарорларини қайта кўришнинг янги тартиби жорий этилгани, ушбу тартиб бўйича ягона суд амалиётини таъминлаш лозимлиги инобатга олиниб, суд қарорларини тафтиш тартибида қайта кўришда қонунларни тўғри қўллаш юзасидан Олий суд пленумининг қарорлари қабул қилинди.

Жумладан, Олий суд пленумининг «Судлар томонидан фуқаролик ишларини тафтиш тартибида кўришнинг айрим масалалари тўғрисида»ги қарорда фуқаролик ишларини тафтиш тартибида қайта кўриш жараёнида судлар томонидан моддий ҳуқуқ нормалари тўғри қўлланилиши ва процессуал қонун талабларига риоя этилишини текширишга доир муҳим тушунтиришлар ўз ифодасини топган.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH
ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Айниқса, амалиётда кенг муҳокама бўлаётган, яъни давлат бошқаруви органлари, ташкилотлар ва айрим фуқаролар фақат даъво ариза (ариза) улар томонидан берилган ҳолдагина суд ҳужжати устидан тафтиш тартибида шикоят бериши мумкинлиги, акс ҳолда шикоятни қабул қилиш рад этилиши каби фикрларга чек қўйиш мақсадида бу масалага аниқлик киритилди. Яъни, Савдо-саноат палатаси ўз аъзолари манфаатида судга даъво аризаси билан мурожаат қилган ёки қилмаганлигидан қатъи назар, суд ҳужжати устидан тафтиш тартибида шикоят бериш мумкин.

Биринчи инстанция судининг апелляция ёки кассация тартибида кўрилган ҳал қилув қарори, ажрими, қарори ҳамда апелляция ёки кассация инстанцияси судининг ажрими устидан қуйидагилар томонидан тафтиш тартибида шикоят (протест) берилиши мумкин:

ишда иштирок этувчи шахслар, шунингдек ишда иштирок этишга жалб қилинмаган, аммо ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳақидаги масала суд томонидан ҳал этилган шахслар;

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқларини ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил, бундан тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ бўлмаган низолар мустасно;

прокурор иштирокида кўрилган иш бўйича, шунингдек ишда иштирок этувчи шахсларнинг, ишда иштирок этишга жалб қилинмаган, аммо ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳақидаги масала суд томонидан ҳал этилган шахсларнинг мурожаатлари мавжуд бўлган тақдирда Ўзбекистон Республикаси Бош прокурори ва унинг ўринбосарлари, вилоят прокурори, унга тенглаштирилган прокурорлар ва уларнинг ўринбосарлари.

Қорақалпоғистон Республикаси суди, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судлари, Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий суди томонидан тафтиш тартибида кўрилган ишлар бўйича суд ҳужжатлари устидан, шунингдек ушбу судларнинг ва Ўзбекистон Республикаси Олий судининг биринчи инстанцияси бўйича қабул қилинган ҳамда апелляция ёки кассация тартибида кўрилган суд ҳужжатлари устидан Ўзбекистон Республикаси Олий судининг фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъатига тафтиш тартибида:

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Ўзбекистон Республикаси Бош прокурори ва унинг ўринбосарлари прокурор иштирокида кўрилган иш бўйича, шунингдек ушбу модда биринчи қисмининг иккинчи хатбошисида кўрсатилган шахсларнинг мурожаатларига асосан протест келтириши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Олий судининг фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъатида тафтиш тартибида кўрилган ишлар бўйича суд ҳужжатлари устидан Ўзбекистон Республикаси Олий суди Раёсатига:

Ўзбекистон Республикаси Бош прокурори — прокурор иштирокида кўрилган иш бўйича, шунингдек, ушбу модда биринчи қисмининг иккинчи хатбошисида кўрсатилган шахсларнинг мурожаатига асосан тафтиш тартибида протест келтириши мумкин.

Қорақалпоғистон Республикаси судининг, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судларининг фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъати — тегишли фуқаролик ишлари бўйича туманлараро, туман, шаҳар судлари томонидан биринчи инстанция бўйича қабул қилинган ва апелляция ёки кассация тартибида кўриб чиқилган суд ҳужжатлари устидан берилган;

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий суди — ҳудудий ҳарбий судлар томонидан биринчи инстанция бўйича қабул қилинган ва апелляция ёки кассация тартибида кўриб чиқилган суд ҳужжатлари устидан берилган;

Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъати:

Қорақалпоғистон Республикаси судининг, вилоятлар, Тошкент шаҳар судларининг фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъатида, Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий судида апелляция ёки кассация ва тафтиш тартибида кўрилган тегишли фуқаролик ишлари бўйича туманлараро, туман, шаҳар судлари, ҳудудий ҳарбий судлар томонидан биринчи инстанция бўйича қабул қилинган суд ҳужжатлари устидан берилган;

Ўзбекистон Республикаси Олий суди, Қорақалпоғистон Республикаси суди, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судлари, Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий суди томонидан биринчи инстанция бўйича қабул қилинган ва апелляция ёки кассация тартибида кўриб чиқилган суд ҳужжатлари устидан берилган тафтиш тартибидаги шикоятларни (протестларни) кўриб чиқади.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Ўзбекистон Республикаси Олий суди раисининг ва Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъатида тафтиш тартибида кўрилган ишлар бўйича қабул қилинган суд ҳужжатлари устидан келтирилган протести Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Раёсати томонидан кўрилади.

Қорақалпоғистон Республикаси судининг, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судларининг фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъатида, Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий судида тафтиш тартибида кўрилиши лозим бўлган шикоят (протест) мазкур судлар номига йўлланади, бироқ ҳал қилув қарорини қабул қилган судга берилади.

Ҳал қилув қарорини қабул қилган суд шикоят (протест) келиб тушган кундан эътиборан беш кунлик муддатда шикоятни (протестни) ишни тафтиш тартибида кўрадиган судга иш билан бирга юбориши шарт.

Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъатида тафтиш тартибида кўрилиши лозим бўлган шикоят (протест) бевосита Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъатига берилади.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди раисининг, Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг Ўзбекистон Республикаси Олий суди Раёсатига тафтиш тартибидаги протести бевосита Ўзбекистон Республикаси Олий судига берилади.

Тафтиш тартибидаги шикоят (протест) биринчи инстанция судининг ҳал қилув қарори, ажрими, қарори қонуний кучга кирган кундан эътиборан бир йил ичида берилади.

Қорақалпоғистон Республикаси судига, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судларига, Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий судига тафтиш тартибида шикоят (протест) бериш муддати кассация инстанцияси суди томонидан ажрим чиқарилгунига қадар ўтган тақдирда, шикоят (протест) кассация инстанцияси суди томонидан ажрим қабул қилинган кундан эътиборан уч ой ичида берилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъатига тафтиш тартибида шикоят (протест) бериш муддати Қорақалпоғистон Республикаси суди, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судлари, Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий суди томонидан тафтиш тартибида ажрим чиқарилгунига

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

қадар ўтган тақдирда, шикоят (протест) ушбу судлар томонидан ишни тафтиш тартибида кўриш натижалари бўйича ажрим қабул қилинган кундан эътиборан уч ой ичида берилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди раисининг, Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг протести ушбу ФПКнинг $419^4$-моддасининг биринчи қисмида кўрсатилган шахслар мурожаат қилган кундан эътиборан уч ой ичида, лекин Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъати томонидан ишни тафтиш тартибида кўриш натижалари бўйича ажрим қабул қилинган кундан эътиборан олти ойдан ортиқ бўлмаган муддатда Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Раёсатига киритилиши мумкин.

Тафтиш тартибидаги шикоят (протест) беришнинг ўтказиб юборилган муддати шикоят (протест) берган шахснинг илтимосномаси бўйича суд (судья) томонидан, агар илтимоснома шикоятни (протестни) бериш муддати ўтган кундан эътиборан уч ой ичида берилган ва шикоятни (протестни) бериш муддати ўтказиб юборилишининг сабаблари узрли деб топилган бўлса, тикланиши мумкин.

Тафтиш тартибидаги шикоятни шикоят бераётган шахс ёки унинг вакили имзолайди.

Тафтиш тартибидаги протест уни келтирган прокурор томонидан имзоланган бўлиши керак.

Тафтиш тартибидаги шикоятда (протестда) шикоятни (протестни) берган шахснинг ёхуд унинг вакилининг телефонлари ва факслари рақамлари, электрон почта манзили кўрсатилиши мумкин.

Тафтиш тартибидаги шикоятга қуйидагилар илова қилинади:

давлат божи ва почта харажатлари тўланганлигини тасдиқловчи ҳужжат;

тафтиш тартибидаги шикоят вакил томонидан имзоланган ҳолларда, унинг имзолашга бўлган ваколатларини тасдиқловчи ҳужжат.

Прокурор иштирокисиз кўрилган иш бўйича тафтиш тартибидаги протестга ушбу ФПКнинг $419^4$-моддаси биринчи қисмининг иккинчи хатбошисида кўрсатилган шахсларнинг протест келтиришга асос бўлиб хизмат қилган мурожаатининг кўчирма нусхаси илова қилинади.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH
ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Тафтиш тартибидаги шикоят (протест) ишда иштирок этувчи шахсларнинг сонига қараб кўчирма нусхалари билан бирга судга тақдим этилади, бундан электрон ҳужжат тарзида юбориладиган тафтиш тартибидаги шикоят (протест) мустасно.

Зарур ҳолларда, судья тафтиш тартибида шикоят (протест) берган шахс зиммасига шикоятга (протестга) илова қилинган ёзма материалларнинг кўчирма нусхаларини ишда иштирок этувчи шахсларнинг сонига қараб тақдим этиш мажбуриятини юклатиши мумкин.

Тафтиш тартибидаги шикоятни (протестни) қайтариш тўғрисидаги ажримда шикоятни (протестни) қайтариш асослари кўрсатилади, шикоятни беришда тўланган давлат божини қайтариш ҳақидаги масала ҳал этилади.

Тафтиш тартибидаги шикоятни (протестни) қайтариш тўғрисидаги ажримнинг кўчирма нусхаси шикоятни (протестни) берган шахсга шикоят (протест) ва унга илова қилинган ҳужжатлар билан бирга юборилади.

Тафтиш тартибидаги шикоятни (протестни) қайтариш тўғрисидаги ажрим бекор қилинган тақдирда, шикоят (протест) дастлаб судга мурожаат қилинган кунда берилган ҳисобланади.

Тафтиш тартибидаги шикоятни (протестни) иш юритишга қабул қилиш тўғрисидаги ажримда шикоятни (протестни) кўриб чиқиш учун суд мажлисини ўтказиш вақти ва жойи кўрсатилади.

Тафтиш тартибида шикоят (протест) берган шахс, шунингдек ишда иштирок этувчи шахслар ишни тафтиш инстанциясида кўриш вақти ва жойи ҳақида хабардор қилинади. Иш муҳокамасининг вақти ва жойи тўғрисида белгиланган тартибда хабардор қилинган шахсларнинг келмаганлиги ишнинг тафтиш тартибида кўрилишига тўсқинлик қилмайди.

Ишда иштирок этувчи шахсларнинг илтимосномасига кўра, тафтиш инстанцияси суди (судьяси) суд ҳужжатларининг ижросини тафтиш инстанциясида иш юритиш тамомлангунига қадар тўхтатиб туришга ҳақли.

Тафтиш тартибидаги шикоятни Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъатида кўриб чиқиш учун ўтказишни рад этиш тўғрисидаги ёки тафтиш тартибидаги шикоятни (протестни) иш юритишга қабул қилиш ва кўриб чиқиш учун судлов ҳайъатига ўтказиш ҳақидаги ажрим

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

шикоят (протест) келиб тушган кундан эътиборан бир ойдан кечиктирмай, иш талаб қилиб олинган тақдирда эса икки ойдан кечиктирмай чиқарилади.

Тафтиш тартибидаги шикоятни (протестни) ўрганиш натижалари бўйича чиқарилган ажримнинг кўчирма нусхаси шикоят берган шахсга ФПКнинг 270-моддасида назарда тутилган тартибда юборилади.

Тафтиш инстанцияси судининг ажримида, қарорида баён қилинган кўрсатмалар мазкур ишни янгидан кўраётган суд учун мажбурийдир.

Тафтиш инстанцияси суди у ёки бу далилнинг ишончлилиги ёки ишончсизлиги тўғрисидаги, айрим бир далилларнинг бошқаларидан устунлиги ҳақидаги, иш янгидан кўрилган тақдирда қандай қарор чиқарилиши кераклиги тўғрисидаги масалаларни олдиндан ҳал қилиб қўйишга ҳақли эмас.

Шунингдек, процессуал қонун нормаларини бир хилда ва тўғри қўлланилиши амалиётини шакллантириш мақсадида вилоят ва уларга тенглаштирилган судларга ҳамда Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъатига фуқаролик ишларини тафтиш тартибида кўриш суд амалиётини умумлаштириб бориш тавсия этилган.

Ушбу ўзгаришлар фуқаролик ишларининг сифатли ва ўз вақтида кўрилишига, суд қарорларини қайта кўришда вилоят судларининг ҳамда уларга тенглаштирилган судларнинг имкониятларидан самарали фойдаланишга, фуқароларнинг шикоят қилиш ҳуқуқидан фойдаланиш имкониятларини кенгайтиради. Шунингдек, ортиқча сарсонгарчиликка йўл қўймасликка хизмат қилади.

**Амалда мавжуд эхтимолий муаммолар ва уларни бартараф қилиш юзасидан юзасидан таклифлар:**

1.**Муаммо:** Фуқаролик процессуал кодекси $279^5$-моддаси 5-қисмида “аппеляция ва кассация” ҳамда “кассация инстанцияси” жумлаларида – “ва” ҳамда “кассация”сўзлари нотўғри ишлатилган деган фикрдамиз.

**Таклиф:** “ва” сўзининг ўрнига - “ёки”, “кассация” сўзининг ўрнига – “тафтиш” сўзларини тишлатиш.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

2.**Муаммо:** Фуқаролик процессуал кодекси 20-моддаси 2-қисмида - “Ишни биринчи инстанция судида кўрган судья шу ишни апелляция, кассация ёки тафтиш инстанцияси судида кўришда иштирок этиши мумкин эмас”, деб кўрсатилган. Амалда судья тумандан шаҳар ёки вилоят судига ишга ўтадиган бўлса, унинг 1-инстанцияда кўрган, лекин мазмунан тугаланмаган ишлари юзасидан келиб тушган шикоятларни кўриш ваколатига аниқлик киритиш

**Таклиф:** ФПК 20-млддаси 2-қисмини қуйидагича ўзгартириш – “Ишни биринчи инстанция судида кўриб, мазмунан ҳал этган судья шу ишни апелляция, кассация ёки тафтиш инстанцияси судида кўришда иштирок этиши мумкин эмас.”, деб ўзгартириш.

3.**Муаммо:** 1-чи инстанция томонидан низосиз талаблар бўйича чиқарилган суд буйруқлари юзасидан фуқаролар тўловни амалга оширмаган холда суд буйруғини бекор қилишга ариза ёзиб кетишмоқда. ФПК 181-модасига кўра, суд буйруғи бекор қилинмоқда. Фуқаро суд буйруғи чиқаришга берилганидан бехабар. Ҳамда унга тўловга қўшимча равишда давлат божи ҳам юкланмоқда. Бу суд учун ҳам, фуқаро учун ҳам ортиқча харажат ва оворагарчилик.

Таклиф: суд буйруғини бериш тўғрисида ариза талабномадан ашқари, судга бериган ариза нусхасини фуқарога юборлиганлигини тасдиқловчи ҳужжатни илова қилиш.

4.**Муаммо:** судга ариза ёки шикоят ариза берилганда, уни рад қилинса, қайтарилса, кўрмасдан қолдирилса асословчи ажрим чиқариш талаби мавжуд. Бироқ шу ҳужжат электрон тизим орқали юборилса, девонхона ходимининг ўзи томонидан “ҳеч қандай асоссиз қайтариш тугмасини босиш орқали” ҳужжатларни қабул қилмаслик имконияти мавжуд. Бу фуқаролар норозилиги ортишига сабаб бўлади.

**Таклиф:** Ахборот тизими бўйича мутахассисларга мурожаат қилиб ёки иш юритиш йўриқномасига мурожаатларни қайтариш бўйича холатга аниқлик киритиш ва бартараф этиш.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республиткаси Конституцияси.130-134-модалар.
2. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодекси. –Тошкент. Адлия вазирлиги. Адолат. 2022.
3. Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Дарслик. Муаллифлар жамоаси. –Тошкент ТДЮУ. 2020. –Б. 41
4. Z.Esanova. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. –Toshkent. Yuridik adabiyotlar publish. 2022. –Б.18.
5. Ш.Шорахметов. Ўзбекитсон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига шарҳлар. –Тошкент. ТДЮИ. 2016. –Б.13.
6. https://my.sud.uz/ портали.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

# STADIONDAN SAMOLYOTGACHA: FUTBOL VA TURIZM ORASIDAGI KO‘RINMAS YO‘L

**Salimov Javod Salomovich**
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi
1-bosqich talabasi
javodsalimov@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada futbol industriyasining turizmga ko‘rsatadigan iqtisodiy va ijtimoiy ta’siri atroflicha tahlil qilingan. Xususan xorijiy yirik klublar tajribalari misolida, sport va turizm o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib beriladi. Maqolada xorijiy tajribalar asosida O‘zbekistonda sport-turizmini rivojlantirish uchun zarur infratuzilma, marketing va investitsion strategiyalar haqida aniq takliflar ilgari surilgan. Shuningdek, soha istiqbollari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham yoritilgan. Mazkur ish sport turizmi orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy asos bo‘la oladi.

**Kalit so‘zlar:** Futbol, turizm, industriya, marketing, sport turizmi, futbol turpaketlari, investitsiya, stadion ekskursiyalari, futbol brendi, stadion infratuzilmasi, futbol festivallari.

**Kirish.**

Zamonaviy dunyoda sport nafaqat jismoniy faollik va sog‘lom turmush tarzi balki kuchli iqtisodiy va madaniy foyda olish vositasiga ham aylangan, u orqali ajoyib marketing strategiyalarini ishlab chiqish va yuqori darajada daromad olish mumkin. Ayniqsa, futbol – dunyo bo‘yicha eng ko‘p tomosha qilinadigan, eng ko‘p muhokama qilinadigan, eng ko‘p odamni bir joyga yig‘adigan va dunyodagi eng mashhur sport turi hisoblanadi. Shunday ekan, nega bundan oqilona foydalanmaslik kerak? Bugungi kunda “sport sayyohligi” (yoki sport turizmi) degan atama keng qo‘llanmoqda. Bu sport tadbirlarida ishtirok etish yoki ularni tomosha qilish maqsadida boshqa shaharga yoki mamlakatga sayohat qilishdir.

Misol uchun, kimdir “Real Madrid” yoki “Manchester Yunayted” o‘yinini ko‘rish uchun Ispaniya yoki Angliyaga boradi. Bu sayyoh mehmonxonada yashaydi, restoranlarda ovqatlanadi, shahar bo‘ylab sayr qiladi demak, bu ham mamlakatni tanitish

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

imkoniyati shuningdek, bundan turizm sohasi yaxshigina daromad oladi. Xuddi shunday, chet elda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham sport ayniqsa futbol orqali turizmni rivojlantirish va bundan yetarlicha daromad olib mamlakatimizning turizm salohiyatini namoyish etish imkoniyati mavjud. Ushbu maqolada aynan shu mavzu bo‘yicha ayrim fikr mulohazalarimiz va takliflarimizni bayon etamiz va mavzuga chuqurroq kirib borishga harakat qilamiz, demak boshladik.

Sport turizmi – bu sport tadbirlariga borish, ularda ishtirok etish yoki tomosha qilish orqali amalga oshiriladigan turizm turi. U ikki asosiy yo‘nalishda bo‘ladi:

- Passiv sport sayyohligi – bu musobaqalar yoki sport tadbirlariga, futbol o‘yini, olimpiada, marafonlarga uni kuzatish uchun shunchaki tomoshabin sifatida borish.
- Aktiv sport sayyohligi – esa o‘zi qatnashadigan sport turi bo‘yicha safar va ishtirokidir (masalan, tog‘ga chiqish, veloyurish, suzish musobaqalari).

Futbol esa aynan passiv yo‘nalishda ya’ni tomosha va ommaviylik nuqtai nazaridan eng kuchli sohaga aylangan. Ayniqsa, klub futboli (mashhur ligalar, derbilar, kubok musobaqalari) turistlar va tomoshabinlarni jalb qilish bo‘yicha kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

***O‘zbekistonda futbol va turizm sohalarining hozirgi holati*** **–** O‘zbekistonda professional ligalar Superliga, pro liga va quyi ligalar nisbatan barqaror faoliyat yuritmoqda klub soni, muxlislar bazasi oshmoqda. Paxtakor, Nasaf, Navbahor kabi klublar Osiyo chempionlar ligasida va boshqa Osiyo miqyosidagi musobaqalarda munosib ishtirok etmoqda, va bu tizim futbolchilarga professional maydon topish imkonini beradi.

Yangi stadionlar barpo etilmoqda, ayrim klublar xorijlik legionerlar bilan tarkiblarini kuchaytirmoqdalar, infratuzilma, murabbiylar tayyorlash, hakamlik tizimini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribalar olinmoqda va qator kelishuvlarga erishilmoqda, yoshlar futboliga e’tibor kuchli bir qator akademiyalar juda ham iste’dodli yoshlarni tarbiyalab bermoqdalar, xususan Nasaf, Bunyodkor, Mash’al, Paxtakor kabi futbol klublarimiz akademiyalari ajoyib ish olib bormoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda 6-7 milliondan ortiq xorijiy sayyohlar tashrif buyurishgan, bu ko‘rsatkichlar pandemiyadan so‘ng ancha tiklana boshladi. Buxoro, Samarqand, Xiva kabi tarixiy joylarimizda joylashgan obidalar YUNESKO merosi ro‘yxatiga kiritilgan, sayyohlar uchun bu joylar katta qiziqish uyg‘otadi. 2023 yildan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

boshlab sport turizmiga qiziqish oshdi, lekin hali bu masalada tizimli rivoj yo‘q, ammo aynan turizmning boshqa turlarida sezilarli yutuqlarga erishayapmiz, bu masalada Prezident qarori bilan viza olish tizimi soddalashtirildi, “open sky” rejimi joriy etilmoqda, turizm uchun juda ko‘p imtiyozlar berilmoqda. Lekin hozircha O‘zbekistonda sport sayyohligi ayniqsa futbolga bog‘liq bo‘lgan turizm umuman rivojlanmagan. Bu esa yangi bir turizm yo‘nalishini istiqbolli tarzda rivojlantirish va ommalashtirish uchun ajoyib imkoniyatdir.

**Nega aynan futbol turizmini rivojlantirish kerak?** Yuqorida aytib o‘tkanimizdek futbol eng ommaviy va ko‘pchilik uchun sevimli sport turidir, to‘g‘ri O‘zbekistonda futbol muxlisligi va uning ommaviyligi xorijiy mamlakatlardagi kabi emasdir, lekin baribir yurtimiz aholisi ham ayniqsa vodiyda futbolni juda yaxshi ko‘rishadi, xususan Andijon va Namangandagi muxlislik va futbol muhiti sekin asta Yevropa darajasiga chiqmoqda ya’ni deyarli har bir hududimizda oz bo‘lsada tomoshabinlar bor, demak, shuning o‘zi bilan ham bu yo‘nalishni va turizm sayyohligini rivojlantirish umidi mavjud.

- *Futbol brendi bor* – O‘zbekistonda ko‘p yillik tarixga, va Osiyoda ham o‘z o‘rniga ega Paxtakor, Nasaf, Navbahor kabi qisman bo‘lsada brendga aylangan jamoalarimiz mavjud, ayniqsa Paxtakor va Bunyodkor jamoalarimizni bir vaqtlar butun Osiyo yaxshigina tanib olgan.
- *Hududiy tenglik* – Futbolimiz faqat poytaxt Toshkent shahrida va bu shahar jamoalari atrofida emas balki boshqa viloyatlarimizda ham – Qarshi, Andijon, Namangan, Farg‘ona kabi hududlarda ham ancha rivojlangan va viloyatimiz jamoalari orasida hattoki Osiyoda ham o‘z o‘rniga ega kuchli jamoalar bor, va ayniqsa muxlislik borasida vodiy jamoalarimiz alohida e’tirofga loyiqdir.
- *Tashrifchi muxlislar* – Aytib o‘tganimizdek, yurtimiz futboliga qiziqish va muxlislar tashrifi yil sayin oshib bormoqda, lekin buning o‘zi yetarli emas. O‘zbekiston chempionatining markaziy o‘yinlariga mahalliy muxlislar qatori hech bo‘lmaganda qo‘shni davlatlarimizdan ham muxlislarni jalb etishimiz lozim, to‘g‘ri bu boshida oson bo‘lmaydi lekin aniq tizim va chempionatimiz darajasini yanada oshirsak buning imkoni bor, sekin-asta bu yo‘nalishni va chegaralarimizni kengaytirishimiz lozim.

Misol uchun Navbahor Saudiya Arabistonida o‘yin o‘tkazganida minglab muxlislar Namanganga qiziqdi. Shu o‘yinga borgan odamlar javob o‘yinida yurtimizga ham

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

kelganlarida Namanganga ham jon deb sayohat qilgan bo‘lardi, shunchaki aniq tizim bo‘lsa bas bu xorijiy sayyohlar oqimini ichki hududimizga olib kirish imkoniyati bo‘lgan bo‘lardi.

**Qanday turizm mahsulotlari yaratish mumkin?** Quyidagilarni real hayotga tatbiq etish mumkin bo‘lgan turistik mahsulotlar va xizmatlar deb ko‘rsatish mumkin:

*1. Futbol turpaketlari* – Stadionga kirish chiptalari, aviabilet yoki ichki transport xizmati, mehmonxona yoki joylashtirish, shahar bo‘ylab ekskursiyalar (stadion, muzey, tarixiy joylarga) mahalliy oshxonani tatib ko‘rish, suvenirlar, futbolka, sharflar va boshqalar, futbol tomosha qilish uchun kelgan muxlislarga aynan shu kabi alohida turpaketlarni ishlab chiqishimiz lozim bo‘ladi.

*2. Stadion ekskursiyalari* – Bu futbol muxlislari va sayyohlar uchun mo‘ljallangan maxsus sayohat bo‘lib, ular professional stadionning ichki tuzilmasi, tarixi va inshootlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, eksklyuziv ma’lumotlarga ega bo‘lishadi, ekskursiyalar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- ✓ Stadion ichki maydoniga kirish;
- ✓ Futbolchilarning kiyinish xonalari;
- ✓ Matbuot anjumanlari zali;
- ✓ Vip zonalar va futbol muzeylari;
- ✓ Klub tarixi va yutuqlari bilan tanishish

*3. “Futbolchilar izi bilan” yo‘nalishlari* – Albatta bu borada xorijiy mamlaktlar tajribasidan o‘rganishimiz lozim, futbolchilarning izi bilan yo‘nalishlarni tashkil qilish bu futbol tarixida iz qoldirgan mashhur futbolchilarning tug‘ilgan joylari, ilk futbol maktablari, o‘ynagan klublari, stadionlari va yutuqlari bilan bog‘liq bo‘lgan maskanlar bo‘ylab tuzilgan tematik sayohat marshrutlaridir. Bu turdagi yo‘nalishlar nafaqat sportga, balki shaxsiy ilhomga, motivatsiyaga, futbol yulduzlarining hayot yo‘liga bo‘lgan qiziqishni va shu bilan birga bu mashhur futbolchilarni tanigan muxlislarni ular orqali ajoyib va unutilmas sayohatga ham taklif qiladi. Bu tajriba albatta Yevropada yuqori darajada tashkil etilgan. Xususan Portugaliyaning Madeira orolida mashhur futbol yulduzi Krishtianu Ronalduning alohida yo‘nalishi mavjud. Madeira orolida unga bag‘ishlangan “CR7 Museum” tashkil etilgan, sayyohlar uning tug‘ilgan uyi, o‘sgan maktabi, va ilk mashg‘ulot maydoniga tashrif buyurishadi, aynan ushbu loyiha hozirgi kunda orolga 150 mingdan ortiq sayyohlarni jalb qilmoqda.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Shunday ekan bu loyihani nega O‘zbekistonda sinab ko‘rmasligimiz kerak? O‘zbekistonda dunyo taniydigan va uning yo‘nalishini tashkil qilishimiz lozim bo‘lgan futbolchilar mavjudmi degan savol tug‘ilishi mumkin? To‘g‘ri bizda bu kabi futbolchilar sanoqli lekin oz bo‘lsada mavjud. Misol uchun Eldor Shomurodov, Abduqodir Husanov, va tariximizda o‘zbek futboli afsonalari bo‘lgan Odil Ahmedov, Server Jeparov kabi futbolchilarimizning o‘zi yo‘nalishlarini tashkil qilishimiz mumkin, Xususan misol tariqasida oladigan bo‘lsak Eldor Shomurodovning tug‘ilgan joyi Surxondaryo viloyati bo‘ylab uning o‘qigan maktablari, futbol akademiyalari, ilk murabbiylari bilan tanishuv, uning bolaligiga oid fotosuratlar, intervyularini, va dunyoning nomdor klublaridan biri “Roma” dagi faoliyatigacha bo‘lgan o‘z yo‘nalishini tashkil qilsak arziydi menimcha, bu orqali biz futbolchilarimizni tanitish bilan birgalikda go‘zal va tarixiy joylari ayniqsa yuksak tog‘ tizmalari ko‘pchilikka nomal’um bo‘lgan Surxondaryo viloyatini ham butun dunyoga tarannum etish imkoniga ega bo‘lamiz. Xuddi shunga o‘xshash yo‘nalishlarni ko‘plab tashkil etish mumkin. Yana shuningdek, bu yosh futbolchilarimiz uchun ilhom manbayi, mahalliy futbol yulduzlarimizni xalqaro miqyosida namoyon etish imkoniyati, shaxsiylashtirilgan turpaketlar orqali yaxshigina daromad olish, va mahalliy sport inshootlari, maktablari va stadionlariga bo‘lgan e’tiborni ortishiga sabab bo‘ladi deb o‘ylayman.

*4. Fan-zonalar va futbol festivallari* – Fan zonalari va futbol festivallari bu zamonaviy sport turizmining ajralmas qismi bo‘lib, futbol muxlislari uchun tashkil etilgan turli xil tomoshalar, katta ekranlar orqali jonli o‘yin namoyishlari, interaktiv o‘yinlar, musiqa, milliy taomlar, suvenir savdosi, sportchilarga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar va hatto kichik sahnalarda ko‘rgazmalarni ham tashkil etadi, bunaqa sport tadbirlarini O‘zbekistonda ommalashtirish orqali nafaqat sport zavqini balki turistik hayotni ham jonlantirish mumkin. Ayniqsa, futbol festivallari orqali mezbon mamlakatlar o‘z madaniyati, mehmondo‘stligi va sport salohiyatini namoyish etadi. Agar O‘zbekistonda xalqaro yoki mintaqaviy sport musobaqalari o‘tkazilsa, fan zonalari va festivallari tashkil etish orqali:

- ✓ Turizm hajmi oshadi;
- ✓ Mahalliy iqtisodiyot faollashadi;
- ✓ Brend imidji mustahkamlanadi;
- ✓ Yoshlar orasida sport madaniyati kuchayadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Misol uchun 2024-yil O‘zbekistonda o‘tkazilgan futzal bo‘yicha jahon chempionati xorijlik va mahalliy muxlislar shuningdek sayyohlar uchun o‘zgacha tajriba yaratdi desak xato bo‘lmaydi.

***Qaysi hududlarda bu modelni sinab ko‘rish mumkin?***

*Namangan – Navbahor klubi – Chortoq sanatoriyasi*. Chortoq – bu tog‘li hududdagi dam olish va sog‘lomlashtirish maskani hisoblanadi. Futbol o‘yinini tomosha qilish uchun Namanganga kelgan muxlislar va sayyohlar Chortoqda dam olib turistik tajribasini boyitishi mumkin.

*Andijon – Andijon futbol klubi – Bog‘ishamol ekoturizm maskani.* Bog‘ishamol tabiat qo‘ynida joylashgan biofaol dam olish hududidir. Futbol ishqibozlari o‘yindan keyin Bog‘ishamolga borib, tog‘ sayri, yoga, milliy taomlar bilan tanishish kabi xizmatlardan bahramand bo‘lishlari mumkin.

*Qarshi – Nasaf klubi – Kitob geologik qo‘riqxonasi (yaqin hududda joylashgan).* Nasaf o‘yinlarini tomosha qilish bilan birgalikda muxlislar va sayyohlar Kitob tumanidagi geologik yodgorliklar bilan tanishib bu hudud haqida yetarlicha ma’lumot olishlari mumkin bo‘ladi.

**Bu misollar nimani ko‘rsatadi?** Futbol o‘yinlari nafaqat stadion bilan, balki atrofidagi  tabiiy va madaniy resurslar bilan birga turistik mahsulotga aylanishi mumkin. Bu esa hududiy turizm va iqtisodiyotga yangi nafas beradi.

**Xorijiy tajribadan nimani o‘rganish mumkin?** Futbol va turizmni birlashtirish borasida dunyodagi eng muvaffaqiyatli tajriba – Yevropa davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, Angliya, Ispaniya, Germaniya va Turkiya kabi mamlakatlar klub futboli orqali millionlab sayyohlarni jalb qilishga muvaffaq bo‘lgan.

Ispaniya – Real Madrid va “Bernabeu effekti” – Real Madrid klubi nafaqat sport jihatidan dunyoning eng mashhur jamoasi, balki turistik brendga aylangan. Uning o‘yinlarini jonli tomosha qilish uchun har yili minglab xorijiy turistlar Madridga tashrif buyuradi. Eng diqqatga sazovor joyi “Santiago Bernabeu stadion turi” bu muzey, matbuot zali, futbolchilarning kiyinish xonalari, kuboklar kolleksiyasi, maydon atrofi va vip zonalarni o‘z ichiga olgan sayohatdir.

Real Madrid muzeyi Ispaniyada eng ko‘p tashrif buyuriladigan sport muzeyi hisoblanadi. Stadion va muzeyga yiliga 1 milliondan ortiq sayyoh keladi. Bu model orqali Madrid shahri nafaqat futbol jamoasi orqali, balki turizm orqali ham katta daromad oladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Mahalliy iqtisodiyotga ta'siri esa restoranlar, transport, suvenir savdosi orqali aniq seziladi.

Manchester Yunayted – sport bilan iqtisodning uyg'unligi – Angliyadagi "Old Trafford" stadioni – "Theatre of Dreams" (Orzular sahnasi) sifatida tanilgan. Manchester Yunayted har bir mavsumda o'rtacha 70 mingdan ziyod tomoshabinni o'z stadionida qabul qiladi. Bu o'yinlarga tashrif buyuruvchilar orasida minglab xorijiy muxlislar bor. "Old Trafford stadion turi" va Manchester shahridagi futbol do'konlari, kafe va sport brendlari do'konlari orqali shahar turistik markazga aylangan. Yil davomida faqat stadionni tomosha qilish uchun yarim millionga yaqin kishi Manchesterga sayohat qiladi. Bu esa shahar iqtisodiga milliardlab funt daromad olib keladi.

Germaniya – Dortmund va "Signal Iduna Park" – Borussia Dortmund klubi stadionida har bir o'yinda 80 ming muxlis yig'iladi. Klub sayti orqali stadion turlari, muzeyga kirish, tarixiy futbol to'plari va formalar ko'rgazmasi tashkil etilgan. Ayniqsa, "Yellow Wall" stadionning eng shovqinli sektori tomoshabinlar uchun alohida jalb qilish kuchiga ega.

Turkiya – Istanbulda futbol va turizm uyg'unligi – Galatasaray, Fenerbahche, Beshiktosh kabi klublar orqali Istanbul shahri futbol sayyohligi markaziga aylangan. Ayniqsa, derbi o'yinlari (Galatasaray va Fenerbahche) turistlar uchun alohida tajriba. Bu o'yinlarni tomosha qilish maqsadida Turkiyaga ko'plab arab va yevropalik sayyohlar tashrif buyuradi. Turkiyada futbol – nafaqat sport, balki milliy turizm strategiyasining bir qismiga aylangan.

**Biz bu tajribalardan nimani o'rganishimiz mumkin?** Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, futbol nafaqat sport, balki turizmni rivojlantiruvchi muhim omildir. Stadionlar, klub muzeylari, brend mahsulotlar va muxlislar zonalari orqali shaharlar yirik sayyohlik markaziga aylanishi mumkin. Futbolni tajriba sifatida namoyish etish turistga hissiy taassurot beradi. Shuningdek, sport voqealarini turistik mahsulotga aylantirish, infratuzilmani yaxshilash va marketingdan samarali foydalanish juda muhim. Bu orqali O'zbekistonda ham sport va turizm integratsiyasini yo'lga qo'yish mumkin.

O'zbekiston uchun aniq takliflar va chora-tadbirlar – O'zbekiston ham xorijiy tajribani o'rganib, futbol klublarining brendga aylanishiga, stadionlar atrofi sayyohlar uchun qulay maskanga aylanishiga e'tibor qaratishi lozim. Futbol orqali sayyohlarni jalb qilish, stadionlarda muzey, do'kon, restoranlar ochish, stadion turlarini yo'lga qo'yish

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

zarur. Shuningdek, sport tadbirlarini marketing vositasiga aylantirish, ijtimoiy tarmoqlarda faol reklama qilish, xalqaro sport tadbirlarini olib kirish, stadionlarni modernizatsiya qilish kerak. Bu orqali ichki va tashqi turizm jonlanadi, iqtisodiy foyda ortadi, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar paydo boʻladi.

Oʻzbekiston xorijiy tajriba asosida sport va turizmni birlashtirish yoʻlida muhim islohotlarga qoʻl urishi zarur. Jumladan, mahalliy futbol klublarining kuchli brendga aylanishiga erishish lozim. Masalan, "Real Madrid" va "Manchester Yunayted" klublari oʻz stadionlarini muzey, fan-doʻkonlar, kafe va "stadion tour" xizmatlari bilan sayyohlar uchun haqiqiy markazga aylantirgan. Oʻzbekistonda ham "Paxtakor", "Milliy" stadionlari va boshqa yirik sport obyektlari atrofida aynan shunday servislar tashkil etilishi kerak.

Shuningdek, sport tadbirlarini ichki va tashqi turizmni jonlantiruvchi vosita sifatida koʻrish lozim. Masalan, har bir oʻyin oldidan ijtimoiy tarmoqlarda maxsus promo roliklar, chiptalar bilan birga qoʻshimcha turist xizmatlari (gidlarsiz turlar, mehmonxona paketlari) taklif qilinishi mumkin.

Xalqaro miqyosda esa, Osiyo kubogi, Osiyo oʻyinlari yoki yoshlar turnirlarini Oʻzbekistonga olib kirish, bu orqali xorijlik futbol ishqibozlari oqimini jalb qilish mumkin. Infratuzilmalarni modernizatsiya qilish ayniqsa transport, mehmonxona va internet xizmatlarini yaxshilash ham shart. Shu bilan birga, yoshlarga sport orqali ta'lim berish, sport maktablarini xalqaro akademiyalar bilan integratsiya qilish orqali sport turizmini uzoq muddatli barqaror tizimga aylantirish mumkin. Bu yoʻnalishda davlat tomonidan grantlar, imtiyozli kreditlar, investorlar uchun soddalashtirilgan tartiblar belgilanishi zarur. Natijada, Oʻzbekistonda futbol orqali nafaqat turizm, balki iqtisodiy oʻsish, ish oʻrinlari yaratish va yoshlar bandligini oshirishga erishish mumkin boʻladi. Eng muhimi, sport orqali mamlakat imijini dunyoda mustahkamlashga katta zamin yaratiladi.

**Xulosa.**

Futbol orqali turizm – bu nafaqat orzu, bu amaliy strategiyadir. Bugungi global turizm industriyasida sport, xususan, futbol nafaqat ommaviylik balki iqtisodiy va madaniy ta'sir kuchi jihatidan ham yetakchi sektor sifatida namoyon boʻlmoqda. "Real Madrid", "Manchester Yunayted", "Barselona" kabi klublarning faoliyati shuni koʻrsatadiki, futbol faqat oʻyin emas, balki kuchli marketing, zamonaviy infratuzilma, brend strategiyasi va turizmni uygʻunlashtirgan sanoatdir.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

O‘zbekistonda bu yo‘nalish hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsada, mavjud salohiyat zamonaviy stadionlar, futbolga bo‘lgan ommaviy qiziqish, yoshlar resursi va turistik obyektlar sport-turizm simbiozini rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Ushbu maqolada ilgari surilgan g‘oyalar va takliflar orqali stadionlarni turistik markazga aylantirish, sport tadbirlarini xalqaro darajada tashkil etish, marketing va infratuzilmani rivojlantirish O‘zbekiston sport-turizmini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish mumkinligini iloji boricha asoslab berishga harakat qildik. Eng asosiysi, sport va turizm uyg‘unlashuvi orqali mamlakatga xorijiy sayyohlar oqimini ko‘paytirish, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, iqtisodiy faollikni oshirish hamda O‘zbekistonning jahon miqyosidagi ijobiy imijini mustahkamlash mumkin. Bu esa uzoq muddatli barqaror rivojlanish yo‘lida muhim omil hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

**1**. Preuss, Holger. The Impact and Evaluation of Major Sporting Events.

**2**. Higham, James (ed.). Sport Tourism Destinations: Issues, Opportunities and Analysis. Routledge, 2005.

**3**. Getz, Donald. Event Tourism: Concepts, International Case Studies, and Research. Cognizant Communication Corporation, 2012.

**4**. Ziyodullaev, M. (2021). "Sport turizmining O‘zbekistondagi rivojlanish istiqbollari." O‘zbekiston Turizm va Madaniy Meros Jurnali, 2(14), 88–94.

**5**. Uzbekistan Football Association (UFA) – rasmiy sayt: https://ufa.uz

**6**. Davlat statistika qo‘mitasi (2023). Turizm va sport xizmatlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar. https://stat.uz

**7**. O‘zbekiston Turizmni Rivojlantirish Milliy Komissiyasi. Turizm sohasini rivojlantirish strategiyasi – 2030. Toshkent, 2022.

**8**. Deloitte (2020). Football Money League: Profiling the World's Richest Football Clubs.

**9**. UNWTO (United Nations World Tourism Organization). Sports Tourism Report 2021.

**10**. Morrison, Alastair. Marketing and Managing Tourism Destinations. Routledge, 2018.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

# ABDULLA ORIPOV IJODIDA JANR POETIKASINING NAZARIY ASOSLARI

**Maksumova Inoyatxon Vahidulla qizi**

Alfraganus universiteti, Filologiya fakulteti

Arab tili yo‘nalishi, 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada Abdulla Oripov ijodida janr poetikasining nazariy asoslari tadqiq etiladi. Shoir ijodidagi milliylik, tarixiylik, xalqchillik va falsafiylik unsurlari janrlar xilma-xilligi bilan uyg‘un holda yoritiladi. Asarda Oripov lirikasi va dostonlaridagi badiiy tasvir, ramz, obrazlar orqali milliy tafakkur, vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari tahlil qilinadi. Ayniqsa, she’riyatida xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot va zamonaviy estetik qarashlar sintezi poetik izlanishlar bilan asoslanadi. Shoir asarlarida folklor unsurlarining zamonaviy talqini, yangi badiiy shakllarning paydo bo‘lishi va ularning ijtimoiy-ma’naviy kontekstdagi aks ettirilishi ilmiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Maqola hozirgi o‘zbek she’riyatidagi poetik tafakkur va estetik yangilanishlarni tushunishga hissa qo‘shadi.

**Kalit so‘zlar:** Abdulla Oripov, janr poetikasi, o‘zbek she’riyati, poetik tafakkur, folklor poetikasi, milliy adabiyot, vatanparvarlik, estetik yangilanish, badiiy tafsir, zamonaviy lirika.

Hozirgi zamonga kelib inson ko‘ksidagi mushtdek yurak nafaqat ijod ahlining, balki bashariyatning ham mehvariga aylandi. She’riyatning asosiy tahlil ob’ekti, o‘rganadigani inson, deymiz. Bu esa har qanday e’tirozdan holi sohir haqiqat.

Bugungi she’riyatning insonga diqqat-e’tibori yanada teranlashdi. Endilikda yuraklarda kechayotgan his-tuyg‘ularning ranglari, quvonch-safolarning ohanglari, nimtatir tabassum to‘lqinlari, g‘am-alamu o‘y-hayollar shevasi, bir so‘z bilan aytganda, ko‘ngil mamlakati she’riyatimizning qon tomiri bo‘lib qoldi.

Eng quvonarli hodisa – yoshlar she’riyati ham ana shu katta to‘lqinga esh, baqamti odimlamoqda. Ong va tuyg‘u omuxtaligidan tug‘ilgan tafakkur manzaralarini tadqiq etish, kechinmalarning fikrchan suratlarini chizish etakchi tamoyillardan biriga aylandi.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH
ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Ma’naviy-intellektual, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar badiyatning etakchi mezonlari sifatida bo‘y ko‘rsatmoqda.

Abdulla Oripov ijodining dastlabki va undan keyingi bosqichlarida nafaqat Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Boborahim Mashrab singari o‘tmishdagi san’atkorlarning, balki XX asr o‘zbek adabiyotining ustoz shoirlari - Oybek, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir kabi ijodkorlar badiiy kashfiyotlarini ham ijodiy o‘zlashtirgan. Buni isbotlashga yordam beradigan dalillar shoirning maqola va adabiy suhbatlarida uchraydi.

U “Bahor” she’rida G‘.G‘ulomni “surur kuychisi”, “dongdor zamondosh” deb ta’riflaydi. Bu surur - ma’naviy-ruhiy, tarixiy-falsafiy surur, albatta. G‘.G‘ulomni san’atkor sifatida “dongdor zamondosh” mavqeiga ko‘targan, milliy g‘urur kuychisi bo‘lishga chorlagan fazilatlar ham, eng avvalo, ana shulardir. A.Oripov bir adabiy suhbatida “Men S.Vurg‘un, G‘.G‘ulom she’riyatida shoir shaxsiyatining ko‘rinishini o‘rganyapman”[1], - degan edi. G‘afur G‘ulom she’riyatida esa, birinchi galda, sharqona donishmandlik, zukkolik, tafakkur kengligi ko‘zga tashlanib turgan. Tabiiyki, bu jihatlar A.Oripovning ziyrak nigohidan chetda qolmagan. A.Oripov she’riyatda o‘z maktabini yaratgan G‘.G‘ulomning san’atxonasiga chuqur kirib bormaganida, uning sir-asrorini ichki, ya’ni botiniy ijodiy ehtiyojlariga muvofiq tarzda o‘zlashtirmaganda, bizningcha, u bunchalik ulkan yutuqlarga erisha olmasligi ham mumkin edi.

Zero, har bir san’atkor ijodi ming bir buloqdan suv ichadi. Asrlar davomida kuylab kelingan abadiy va o‘lmas mavzularning har bir ijodkor ijodida o‘ziga xos yangicha ohang, yangicha tasvirlarda jilolanishi ham shundandir. Masalan, vatan mavzusini olaylik.

Har bir ulug‘ shoirning ishongan bog‘i, suyanadigan tog‘i shak-shubhasiz uning jonajon Vatanidir. Tug‘ilib o‘sgan zamin uning uchun har narsadan muqaddas va ilhombaxsh. Shuning uchun ham Abdulla Oripov “O‘ylarim” degan she’rida: “Vatan! Bor qismatim shu bir so‘zda hal”, – degan edi. Ungacha ham Vatan haqida she’rlar bitib, uni ulug‘vor ohanglarda madh etgan shoirlarimiz ko‘p bo‘lgan, albatta. Shu ma’noda G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda va Mirtemir she’riyati badiiy ijod maydoniga kirib kelgan talantlarga, jumladan, Abdulla Oripov uchun ham o‘rnak va mahorat maktabi edi. Vatan mavzusini yoritishda Abdulla Oripov ustozlaridan (masalan,

[1] Орипов А. Танланган асарлар. 4-жилд. – Б. 60.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

tilda, obrazli tasvir va ohang yaratishda) o‘rgangan, lekin u taqlidga yon bermaganidek, takrorga ham yo‘l qo‘ymagan. Buning ham albatta, o‘ziga xos sabablari bor.

Birinchidan, Abdulla Oripov - ulkan talant. Talantli shoir esa, qaysi mavzuda qalam tebratmasin, hamisha o‘z so‘zini, ya’ni yangi fikr - tuyg‘ularini aks ettiradi.

Ikkinchidan, Abdulla Oripov yurt tarixi va taqdirini o‘zicha mushohada etadi, o‘zicha ko‘radi. Shuning uchun G‘afur G‘ulom va Oybek, Shayxzoda va Mirtemir nigohidagi Vatan bilan Abdulla Oripov tasavvuridagi Vatan ma’lum farqlanishlarga ega.

Millat, til, tarix, din tushunchalari bo‘lmasa, *Vatan* so‘zi o‘z-o‘zicha mukammallik kasb etmaydi. Shoirning dastlabki ijod namunalaridan bo‘lgan “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” she’rini o‘qigan kishi Vatan degan tushunchaning tub mohiyati xalq qismati va haqiqatlari orqali yoritilganligiga iqror bo‘ladi. Uning:

*...Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun*
*Sevgan farzand bo‘lsam, kechirma aslo!*

degan satrlari xuddi qasamday yangraydi. Sho‘ro zamonida yurt va millat to‘g‘risidagi haqiqatni to‘la-to‘kis ifodalash imkoni yo‘q edi. Tildan, tarix va qadriyatlardan bahs yuritish ham yozilmagan qonunlarga ko‘ra cheklangan edi. Shu boisdan aksariyat shoirlar Vatan va millatini baxt, baxtiyorlik, ulkan zafarlar og‘ushida tasavvur etar, yozgan she’rlari ham soxta ko‘tarinkilikka asoslanar edi. Abdulla Oripov she’rlarida esa “Vatan” so‘zi-asosiy so‘z va bosh tushuncha bo‘lib qolmasdan, milliy his-tuyg‘u va haqiqatlarni ochib ko‘rsatadigan kalit hamdir. Uning Vatan ishqi va dardi bilan yo‘g‘rilgan she’rlarining yana bir muhim xususiyati shundaki, ularning har biri u yoki bu darajada she’rxonni o‘zligini bilishga, “Sen kimsan?” “Ajdodlaring kim?” “Erk va hurriyat beshiging qayonda?” degan savollarga mustaqil javob izlash va topishga undaydi. Ana shu ma’noda uning Abdulhamid Cho‘lponning izdoshi sifatida ta’riflanishi[2] e’tirozga sabab bo‘lmaydi, deb o‘ylaymiz.

Tarix va tarixiy voqealar, tarixiy shaxslarning juda murakkab muammo va masalalariga ishorat etish Abdulla Oripovning sevgan usullaridandir. Ko‘p she’rlarida, jumladan “O‘zbekiston” qasidasi va “Yuzma-yuz” manzumasidagi ayrim ishoratlarni jur’at va shijoat nishonasi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. “O‘zbekiston” qasidasida shoir bosqinchilar va bosqinchilikni qoralab:

---

[2] Қосимов Б., Эрназарова Г. Миллий бадиий тафаккур. – Т., 2004. – Б. 89.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

*Har uchragan nokasu nodon,*
*Ona xalqim, yoqangdan tutdi,*

- deydi. Sezgir o‘quvchi esa “har uchragan nokasu nodon” so‘zlari faqat arab yoki mo‘g‘ul bosqinchilariga tegishli emasligini oson ilg‘aydi. Boshqa bir she’ridagi:

*Bosqinchi so‘zining ma’nosi shulki,*
*Nonga to‘yganda ham, to‘ymas makonga* bayti haqida ham shunday deyish mumkin.

Darhaqiqat, Abdulla Oripov Vatan haqidagi she’rlari bilan ko‘hna mavzuni tub mohiyati bilan yangilash va uning hech bir shoirnikiga o‘xshamaydigan tasvirlarini yaratishga muvaffaq bo‘lgan edi.

Magistirlik dissertatsiyada Ko‘ngil, Dunyo, Bozor, Zamon obrazlarining badiiy talqinlari tadqiqiga ham alohida sahifalar bag‘ishlangan.

Har bir tarixiy davrning o‘z qonuniyatlari bor. U jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy omillari bilan asoslanadi. Badiiy tafakkurning ushbu davr rivoji qanday xususiyatlari bilan avvalgi bosqichlardan ajralib turadi? Istiqlol ma’naviy-intellektual hayotga qanday ta’sirini ko‘rsatayotir? Badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotining o‘ziga xosligi qanday belgilarda namoyon bo‘layotir? Xususan, mafkuraviy tazyiqlardan qutulib, nimalardan xalos bo‘ldiyu qanday xususiyatlar kasb etdi? Eng muhimi, badiiy-estetik tafakkur erkin bo‘ldimi yoki yo‘qmi?

San’at taraqqiyoti jamiyatning umumiy rivoji va uning moddiy asosiga daxddor emas, degan qarashlar bor. Mustaqillik davri badiiy madaniyatida jamiyatdagi salbiy holatlarga, noqislik va kemtikliklarga qarshi o‘laroq tanqidiy yo‘nalish, yaratuvchanlik g‘oyalari falsafiy mazmunga yo‘g‘rilgan holda turli shakllarda zuhur topdi. Xuddi shunday hodisani kino, teatr, amaliy va tasviriy san’atlarda ham kuzatish mumkin. Shu ma’noda, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o‘pirilish va o‘zgarishlar badiiy-estetik tafakkurga ham ta’sir ko‘rsatdi. Mamlakat iqtisodiy tahchillikka, buxronlarga yuz tutgan bir davrda badiiy madaniyat ijodiy yaratuvchanlik ruhini so‘ndirmadi. Inson bilan voqelikni, tabiat va jamiyat hodisalarini turli xil badiiy shakllarda idrok va ifoda etishdek betakror iqtidorini yo‘qotmadi. Shaxs ma’naviyati bilan jamiyat psixologiyasini bog‘liqlikda anglash va aks ettirishda, realistik san’atning yangi-yangi imkoniyatlarini izlashda davom etdi. Aytish mumkinki, demokratik jamiyat barpo etishda badiiy tafakkur ham faol xizmat qilmoqda.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Hozirgi badiiy-estetik tafakkur rivojining muhim xususiyatlaridan yana biri, bu tarixiy, diniy, madaniy merosga munosabatda, ma’naviy boyliklarni qaytadan estetik baholashga intilishlarda namoyon bo‘lmoqda. O‘tgan asrning tongi jadidchilik madaniyatini, 20-30 yillar adabiy merosini, “bosmachilik” deb atalgan ijtimoiy harakat-milliy ozodlik ko‘tarilishini baholashda yangi ijodiy tafakkur belgilarini ko‘ramiz. Rus adabiyotining N.Gumilev, O.Mandelshtam, o‘zbek adabiyotining Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy, Tavallo, U.Nosir singari siymolarining ijodiy faoliyatini tarixiy voqelik bilan, ijtimoiy-siyosiy muhitning murakkabliklari bilan, san’atkorlar ongi-dunyoqarashidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq o‘rganish teranlashdi. Ushbu hodisa, avvalo, poetik so‘zning qadr-qimmatini yanada oshirdi. Keng o‘quvchilar ommasining estetik saviyasini o‘stirishda, ma’naviy-intellektual madaniyatini yuksaltirishda muhim omillardan biriga aylandi.

Demak, majoziy obrazlilik, ramzli obrazlar vositasida fikrlash XX asr oxiri XXI asr boshlari o‘zbek she’riyatida ustuvor tendensiyaga aylandi.

Keyingi yillar adabiyotimizda shakllangan yangi tafakkur takomilining etakchi tamoyillari qanday xususiyatlarda zuhur topdi?

Ma’nan va axloqan komil insonni shakllantirishda klassik adabiyotimizdagi an’analarga boy hayotbaxsh didaktikaning o‘rni va roli kuchaydi, ahamiyati ortdi. G‘azal, muhammas, musaddas, musamman, ruboiy, to‘rtlik, fard, doston singari mumtoz adabiyotimiz janrlari va she’riy shakllari bugungi voqelik mazmuni bilan boyitilmoqda, rivojlantirilmoqda. Bular badiiy so‘z qadrini oshirishga xizmat qilmoqda. Xalqona ruh,falsafa kechinmalarga yo‘g‘rilgan hikmatli ma’no tilning ifoda imkoniyatlari naqadar kengligini tasdiqlayotir. Bular badiiy tafakkur madaniyatining yangi bosqichidan dalolat beradi.

Hozirgi o‘zbek she’riyatida ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishning kuchayishi, avvalo, mavzu-masalalarning xilma-xilligida (Vatan, erk, istiqlol, turkiy ulus birligi, e’tiqod va riyo, sadoqat va hiyonat singari), zamondoshlarimiz psixologiyasi manzaralarining ma’nodorligida, janr va shakllar rang-barangligida (sonet, sakkizlik, ruboiy, rondo, fard, g‘azal, xokku, tanka, lirik poema, dramatik poema, tarixiy poema, ertak-poema, qasida-poema va h.k.) namoyon bo‘lmoqda. Tarixiy yoki zamonaviy voqelikka munosabatda millat, Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan baholanayotgan she’riyat xalq hayotining bir bo‘lagiga aylanganini zohir etmoqda.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Lirik qahramon tabiatida davr shiddati, ijtimoiy munosabatlar murakkabligi, zamondoshlarimiz tashvish-quvonchlari oʻz ifodasini topmoqda. Poemachiligimizda Ibn Sino, Beruniy, Amir Temur, Navoiy, Bobur, Pahlavon Mahmud, Temur Malik, Halil Sulton, Jaloliddin Manguberdi, Mashrab, Avaz, Nodirabegim, Hamza, Furqat singari tarixiy shaxslar obrazlari orqali xalqimiz hayotining kamolot bosqichlarini, hozirgi taraqqiyotning tarixiy asoslarini, ijtimoiy ildizlarini aks ettirish alohida sahifaga aylandi.

She'riyatning falsafa, tarix, folklor, fan, estetika tasviriy va amaliy san'at, musiqa va h.k.) bilan aloqasini, bir-birini boyitib borishi hodisasini, ifoda imkoniyatlarini oʻrganish alohida bir tendensiyani tashkil etadi. Mazkur tadqiqotchilik yoʻnalishi badiiy-estetik tafakkur rivojida oʻzgacha ahamiyatga ega. Zero, badiiy adabiyot bilan boshqa san'at turlarining bogʻliqlik asoslarini, ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotidagi oʻrni va rolini yoritish galdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mustaqillik davri adabiy hayoti haqida mulohaza yuritish – bu uning tabiatida shakllangan badiiy didlar, estetik saviyalar toʻgʻrisida fikrlashish demakdir. Istiqlol birinchi galda badiiy ongdagi stereotiplarni, qotib qolishga moyil tasavvur va tushunchalarni, nuqtai nazarlarni sindirdi. Istiqlol samaralari tarixiy-madaniy, diniy merosga, buyuk ajdodlarimizga boʻlgan ehtirom tuygʻularida namoyon boʻlmoqda. Istiqlol boqiy qadriyatlarga tayanib kelgusi taraqqiyot yoʻllarini belgilamoqda. Istiqlolning badiiy-estetik tafakkurga olib kirgan yangiligi, bu insondan uzoqlashgan adabiyotni insonga qaytardi.

Endi, XXI asrda badiiy-estetik tafakkur qanday boʻladi, degan savol tugʻilishi tabiiy. Nazarimizda, u mafkuralashmagan, odamni himoya qiladigan, ulugʻlaydigan, millat va Vatan manfaatlariga xizmat qiladigan badiiy madaniyat boʻlib qoladi. Jahon xalqlari badiiyatining uzilmas oltin xalqalaridan biriga aylanadi.

Mustaqillikka bagʻishlangan asarlar istiqlol adabiyoti mundarijasini yangi talqinlar, falsafiy-axloqiy, badiiy-estetik gʻoyalar bilan boyitmoqda. Milliy gʻurur-iftixor tuygʻulari, millatparvarlik, insonsevarlik, ma'naviy-intellektual boyliklar yaratish gʻoyalari istiqlol badiiyatining ustuvor yoʻnalishini belgilamoqda. Tarixiylik, milliylik, xalqchillik, hayotiylik uning etakchi estetik prinsiplari magʻzini tashkil etmoqda. Lirik qahramonlarning mushohada-kechinmalarida mustaqil yurtga egalik hissi, buyuk oʻtmishi va kelajagi boʻlgan xalqqa mansublik tuygʻusi oʻzak mazmunni belgilayotir.

Millat, Vatan, shaxs erkiga bagʻishlangan asarlarda istiqlol bashariy qadriyatdir,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

uni asrash, qadrini baland ko‘tarish burchimizdir degan konsepsiya etakchi. Milliy g‘urur tuyg‘ularining ildizlarini ko‘rsatuvchi mushohadalar yuksak pafosda ifodalanayotir. Istiqlol she’riyati xalqimiz ongi-dunyoqarashidagi o‘zgarishlarning amaliy tasdig‘i, ijtimoiy uyg‘onishning estetik ifodasi bo‘ldi. Bugungi yangilanishlar turkiy ulus tarixi, erk-hurriyat uchun olib borilgan kurash g‘oyalari, vatanparvarlik uyg‘unlikda tasvirlanmoqda. Erkparvarlik g‘oyalari, imon salomatligi, e’tiqod butunligi, dil-ruh erkinligi bugungi she’riyatimiz mazmunini tayinlayotgan bosh yo‘nalishlardir. Xususan, tuyg‘u-kechinmalar insoniy taqdirlar ifodasiga aylanmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, milliy g‘urur fenomeni badiiy-estetik tahlil madaniyatida lirizmga yo‘g‘rilgan publitsistik nutqni, falsafiy teranlikni, psixologizmni ko‘chaytirdi.

A.Oripov badiiyati XX asr o‘rtalari XXI asr boshlari she’riyatimiz tarixida alohida yorqin bir sahifa. Har ikk shoirning adabiy-tanqidiy maqolalari yangilanayotgan estetik mezonlarning (tarixiylik, milliylik, xalqchillik, hayotiylik, haqqoniylik singari) shakllanishiga ta’sir ko‘rsatayotir. Lirikasi, dostonlari, tarjimalari orqali namoyon bo‘lgan badiiy mahorat maktabi, falsafiy-psixologizm XXI asr adabiyotimiz taraqqiyotida ustuvor yo‘nalishlardan bo‘lib qolishi, shubhasiz.

Shaxsni komillik maqomiga ko‘tarishda odob-axloq tarbiyasi birinchi o‘ringa qo‘yib kelindi. Fikr-aql tarbiyasi, tuyg‘ular tarbiyasi negadir e’tibordan chetda qoldirildi. Shu ma’noda, shaxslarni kamol toptirishdagi tafakkur tarbiyasida, milliy g‘urur tarbiyasida Abdulla Oripov she’riyati ayricha ahamiyatga ega. Bedil, Dante, Alisher Navoiy, G‘afur G‘ulom badiiy an’analari, estetik tajribalari ruhida shakllangan shoir tabiatidagi iqtidor imkoniyatlarini yuzaga chiqarishida bosh omil bo‘ldi. Hissiy tafakkur, mushohadakor kechinmalar, qabariq obrazlilik Abdulla Oripov badiiyatining ustozlaridan, salaflaridan ajratib turgan etakchi alomatidir. Ramzlar asosida mushohada yuritish va badiiy umumlashmalarda falsafiy teranlikka erishish yana bir fazilati.

Milliylik, xalqchillik, tarixiylik singari xususiyatlar shoirlarimizning millat va Vatan manfaatlari bilan yo‘g‘rilgan tuyg‘ulari, mushohadalari orqali ayonlashayotir.

Tabiat bilan til topishish insonni ma’naviy qashshoqlikdan xalos etadi, degan fikr bor.

Haqiqatan ham tabiat - «ilohiy maskan», unga bepisand qarash, uni sevmaslik inson boshini ko‘p balolarga duchor etadi. Inson ona tabiatdan yiroqlashsa, o‘zini bilishdan uzoqlashadi va qalbi kambag‘allashadi. Demak, tabiatdagi har bir o‘zgarish yoki

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

hodisa inson taqdiri bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun hayotdagi u yoki bu o‘zgarishlar: quvonch yoki qayg‘u, alam, yo‘qotishlar tabiat fasllariga qiyosan ochib beriladi. «Bahor tilaklari» she’ri shunday satrlar bilan boshlanadi:

*Nechun ko‘klam madhi tushmas g‘azaldan,*
*Shoirlar bahorni kuylar azaldan?*

She’r davomida shoir shu savolga javob beradi. Ya’ni: Bahor - ishq fasli, oshiqlar bahorda «zangori kenglikka boqib», «qo‘shiqlar aytadi bag‘rini yoqib».

Bahorda tabarruk chollarning chakkasida ham ham gul ko‘rasiz. Demak, «momolarning o‘yida» ham, ko‘nglida ham bahor nashidasi tashrif buyuradi.

*Azizim, g‘unchaga nazar sol bir on,*
*Bag‘rida hozircha turfa hol pinhon.*
*Ranglar yashar unda balki pushti, oq.*
*Ajab, tikoni ham hozircha yumshoq.*
*Tong chog‘i shabboda ko‘taradi bosh,*
*Oh, nechog‘ latifu nechog‘li yuvvosh.*

Xullas, «Bahor norasida go‘dakday shirin» hamda uning «qo‘ynida ezgulik, armon yashirin» bo‘lganligi uchun ham ushbu fasl azal-azaldan shoirlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib keladi.

Abdulla Oripovning bahor haqidagi har bir she’ri ma’no jihatdan ham, tuyg‘u, ohang va ifoda nuqtai nazaridan ham o‘ziga xos xususiyat va yangiliklarga ega. Uning, ayniqsa, «Bahor» manzumasi alohida e’tiborga molikdir. Ushbu she’rda shodlik va qayg‘u, visol va hijron, sevgi va hasrat, g‘am va umid o‘zaro uyg‘unlashib ketgan. She’rning umumiy ohangi esa ana shu hayotiy murakkablik va uyg‘unlikdan tug‘ilgan. Shuningdek, «Yana bahor keldi»... degan oddiy xabar bilan boshlangan mazkur she’rda tabiat ko‘rinishlari va inson ruhiy holatlari, hayot va o‘lim haqiqatlari, xotira va qo‘msash hissiyotlari ajralmas birlikka erishgan.

Mumtoz adabiyotimizda kuz, xazon, xazon yaprog‘i kabi timsollarda hijron, oshiq qalbining turli-tuman azob va hasratlari tasvirlangan.

Abdulla Oripovning ayni shu obrazlar talqinidagi yangiliklari yoritib berilgan. Shoir sevib qo‘llagan el (shamol), yulduz kabi obrazlar tahliliga ham ishda alohida o‘rin ajratilgan.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH
ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Adabiyotda yangi yo'l topish va g'oyaviy-badiiy yangilik yaratish oson ish emasligi ma'lum. Shuning uchun an'ana to'g'risidagi fikrlar hamma vaqt kashfiyotchilik xususida o'ylash va so'z yuritish bilan uyg'unlik topib kelgan.

Zero, «... novatorlik san'at va adabiyotda g'oyaviy-badiiy jihatdan formani yangi imkoniyatlar hisobiga boyitish demakdir. Real voqelikda poetik fikrda, tasviriy vositalarda ham hech kim ishlatmagan va ko'rmagan tomonlarni birinchi bo'lish ishlatish, ko'rish qobiliyatiga ega bo'lishdir»[3].

Abdulla Oripov she'riyatiga mana shu nuqtai nazardan yondashilib baho beriladigan bo'lsa, uni haqiqiy yangilik yaratuvchi, ya'ni kashfiyotchi shoir deyishga to'la asoslar mavjuddir.

Chandon ochilgan gullar yolg'iz g'unchalarning yorug' kulgusi emas, yo'q. Ular hayotning boqiyligi, tiriklikning ne'mati yorug'likning g'animatligi va sharofati haqidagi, o'tkinchi fasllarning fayzi, qadri va armonlari xususidagi, bog'bon mexnati va reza-reza peshona teri to'g'risidagi ildizlarning timsolli, rangdor qo'shig'idir, aslida.

Hayot benazir, bebaho ne'mat, tabiat – betakror go'zal hilqat. Ana shunday ma'voda nega odam notugal. To'kis, bekami-ko'st emas? Nega bir ko'zi ikkinchisini o'yaman, deydi? Nega bir qo'li ekkan ko'chatlarni ikkinchisi qirqib quritadi? Nega biri bunyod etsa, ikkinchisi barbod etadi? Nega inson deb atalgan xilqat munchalar sirli, anglab bo'lmas sehrli? Biri yorug'lik, erk uchun kurashsa, ikkinchisi nurni kishanband etadi, ziyoning-yuziga qora to'r tashlaydi. Nega? Boisi nima? Hamma-hammasiga bandaning xom sut emganligi sababmi? Komil emaslining kaliti kimda? Nimaga bog'liq?

Bular – Abdulla Oripovni shoir sifatida hamisha uylantirib kelayotgan, qo'liga qalam tutqazgan, qulfi-dilini ochib, ko'nglidagi og'riqli savollarga javob topishga undagan hayot-tiriklik muammolaridir. Bular, aslida, olamning odam oldiga qo'yayotgan, echimini izlashga da'vat etib kelayotgan adabiy so'rovlari. Shu ma'noda, Abdulla Oripov qalbiga tinchlik bermayotgan, hayollarini junbushga keltirgan hayot hikmatlarini tabiat xossalaridan, ranglaridan izlaydi. Olam sir-sinoatlarini anglatishda so'zlar shoir uchun bir kalit vazifasini o'taydi.

Abdulla Oripov lirikasi bizni hamisha sabr-qanoatga, mas'uliyatga undaydi. Shu ma'noda, she'riyat – hayotning sehrli hikmati, deging keladi. Negaki, hayot saboqlari

[3] Юнусов М. Барҳаёт анъаналар. – Т., 1969. – Б. 70.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

umrni besamar o‘tkazmaslikka, yomonliklarni daf etib, ezgulikka oshno tutinishga da’vat etadi. U o‘zidan nusxalar ko‘chirilishiga orzumand emas. Shoir she’rlarining badiiy-estetik ta’sir kuchi shundaki, ular ko‘hna olam bag‘rida yangi ruhoniy vatan yaratishga ishtiyoqmand.

Poetik so‘zning ma’naviy olam yarata olishdek salohiyatiga ishonadi. Inson ichki dunyosini anglashda, ifoda etishda so‘z beqiyos kashshofligini dil-dildan tuyadi. Tog‘-toshlar uvalanadi, qoyalar, granitlar emiriladi, minoralar nuraydi. Va lekin asrlar o‘tadiki, ma’noli so‘zga kuya tushmaydi. Hikmatli so‘z nuriga gard yuqmaydi. Zero, har qanday yaltiroq jez oltin emas. U qorong‘u kechalari mahliyo qilgan, ko‘zimizni jovdiratgan shilliq qurt ham bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda, so‘z – ma’naviy non. Uni ko‘ngillar, ong-shuurlar dasturxonida ushatib baham ko‘rish mumkin. U shunaqa aziz ne’mat. She’r esa so‘zlarning mehr-muhabbatga aylangan shakli.

Garchand, insonning o‘zi o‘tkinchi esa-da, insoniylik boqiydir. She’riyat insoniylikni, oliyjanoblikni boqiylashtiruvchi, hayot go‘zalliklariyu go‘zallikning haqiqatlarini so‘zlar xotirasiga muhrlashi bilan benazir. She’r Abdulla Oripov talqiniga ko‘ra vijdon tug‘yoni va samiyatdir, u insonni yanada go‘zal va olijanob etuvchi qudratga ega.

Abdulla Oripov lirikasida hayot hikmati, umr-tiriklik hosiyati falsafiy yo‘nalishda badiiy tadqiq etiladi. Xususan, umr mohiyati hayot ranglaridan ma’no o‘qish va uqish bilan uyg‘un namoyon bo‘ladi. Lirik qahramonning hayot, mehnat, mehr-oqibat haqidagi o‘y-mushohadalari mohiyatan ezgulik, go‘zallik, baxt haqidagi shoir qarashlarining falsafiy mag‘ziga aylanadi. Bu borada tabiatning ma’noli manzaralari shoir she’rlarining badiiy pafosini belgilaydi. Dov-daraxtlar zaminning odamlarga aytayotgan dil so‘zlari. Ular shoirning tabiat va boqiylik haqidagi o‘ylariga qatiy mazmun bag‘ishlaydi. Aslida yorug‘lik quyoshning olam bilan odamni alqagan mehr-muhabbatidir.

Abdulla Oripov lirikasi uchun xos xususiyatlardan yana biri shundaki, shoir oddiy turmush, maishiy hayot ko‘rinishlari bilan olamning boqiy manzaralari o‘rtasida mushtaraqlik ko‘radi. Ularni bog‘lab turgan narsa esa inson ko‘rguliklari, hayotning boshlarimizda yurgizgan tegirmon toshlaridir. Dunyo shevalarini tushunishda, aks ettirishda ana shu bog‘liqlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu narsa Abdulla Oripov ijodiy individualligini belgilovchi omillar sirasidandir.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Lirik qahramon shamolning hayollariga singib ketadi. Maysalarning yam-yashil so‘zlariga tuyg‘ularini o‘raydi. Dov-daraxtlar, tog‘u toshlar, qir-adirlar, dala-dashtlar yuragida barq urgan iddaosi ila tillashadi. Tabiat detallari lirik qahramonni odam yozuqi haqida fikrlashga undaydi.

Olamni tushunishda, tanitishda Abdulla Oripov lirikasida inson va tabiat uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Qizg‘aldoq bilan bezangan adirlar, chimzorlarning ko‘m-ko‘k barqut gilami, ming xil qushlarning ming bir nag‘masi, yonboshlagan tog‘ning o‘ychan boshiga yoqqan qor, tesqari oqqan daryolar yig‘isi lirik qahramon qalbida ajab hislar uyg‘otadi. Bu tuyg‘ular sehrini kim bilandir bo‘lishish ishtiyoqi she’rlar shaklida ko‘z ochadi. Shu bois shoir uchun olam xushro‘y ifor, xushbo‘y tarovat belanchagi bo‘lib ko‘rinadi. Shu ma’noda, tabiat mashshoq, bastakor. Mabodo, qushlar sayramay qolsa, bu olam behad qashshoqlashib ketadi.

Umr – faqat oftobli kunlardan, novvot choylardan, yam-yashil bog‘-rog‘lardan iborat emas. Aslida, “Bulut – ko‘k yuzuga tushgan ajindir”, “Qaylardadir orzular yulduz bilan sirlashar”, “Qay burchakda hiyonat sekin-sekin ip eshar”; “Tun-qora soch ostidan nafas oladi umr”; “Bulbul emas, men ko‘rgan qush; Boyqushligin so‘ng bildim”; “Har bir daraxt bir dunyo, har bittasi bir olam”; “Yaxmalak yo‘llar ham ekan ko‘rgulik”; “Tikilib maysaning lablari kuydi” va h.k. Tabiat o‘zining manzarali kechinmalari bilan lirik qahramon hayotining ko‘rkini belgilaydi. Tabiat go‘zalligi bilan odamiylik xislat-xususiyatlari uyg‘unlik kasb etganligi boisidan ham kechinmalar fayzli.

Shoir ijodida folklor poetikasiga xos bo‘lgan prinsiplarning yuzaga chiqishi tasodifiy emas. Ular yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu shoirning sof lirik asarlari uchun ham, epik yaratmalari uchun ham bir xilda xosdir.

Abdulla Oripov she’rlarining asosini tashkil etgan mazmun tabiat, ijtimoiy voqelik hamda inson faoliyatining uyg‘unligidan vujudga keladi. Ana shu omillar go‘zallikning mukammalligini, hayotning azaliyligini asoslaydi. Quyosh samoga ko‘tarilarkan, uni birinchi bo‘lib qushlar, yaproqlar, nihollar qarshi oladi. Bulbul chah-chahlarkan, feruza nahorning safosini chanqoq simiradi. Lirik qahramon daryoga, bog‘larga, tog‘u daralarga yashnoq go‘zallik timsolisimon boqadi. Hayot darsini chanqoq o‘qiydi. Ular og‘ushida inson mehri, e’tiqodining izlari bor. Lirik qahramon insonning chaqindek zehniyu, bunyodkor mehnatida kamalaqlar rangini, yashil dalalarda go‘zallik uchqunlarini ko‘radi. Tabiat bo‘yoqlarida jilvalangan go‘zallik Abdulla Oripov she’rlarida bolalik

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

tasavvurlarini jonlantiradi. Ular sayron kechalarning g‘ir-g‘ir shamoli, bedazorda kishnagan to‘yin yilqilar, sahiy jazirama oftob, mag‘rur tog‘lar obrazidan tarkib topadi.

Yolg‘iz oftob emas, so‘zlar ham nurposh shu’la taratadi. Faqat so‘zlarga nur maqomini berish ijodkorning iste’dod darajasiga, ma’naviy-intellektual saviyasiga, axloqiy madaniyatiga bog‘liq. Tabiat-jamiyat-inson robitalari, umr oniyligiyu hayot boqiyligi singari masalalar shoir oldiga yangi-yangi vazifalar qo‘yadi. Bu-har bir so‘z zimmasiga doimo yangi mazmun yuklash demakdir. Bu yangi-yangi badiiy-estetik talqin ma’nolari demakdir. Hak so‘z qoshida tiz cho‘kkan ehtirom iste’dodning ertangi izlanishlariga katta ishonch uyg‘otadi.

**Xulosa**

Abdulla Oripov ijodida xalqona ohang, obraz va tasvirlar doimo shoirning badiiy-estetik maqsad va vazifalariga uyg‘un kelgan. Bunda bir qator o‘ziga xosliklarning mavjudligini qayd etish lozim:

1. Abdulla Oripov xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan tasvir usullari, motiv va obrazlardan ba’zan ongli ravishda, ba’zan ong osti qatlamlaridagi intiutiv sezim kuchi bilan foydalanadi. Har ikki holatda ham ular shoir tasavvur kuchining kengligi, tug‘ma shoirlik iste’dod imkoniyatlari tufayli tabiiy va quyma satrlar tarzida namoyon bo‘ladi.
2. Qadimgi turkiy folklor an’analarida mavjud bo‘lgan tasvir xususiyatlarining o‘zbek muhitidagi in’ikosi sifatida epik tasvirdagi motiv va ifodalar individual ijod qonuniyatlari bilan omixtalashgan shaklga ega bo‘ladi. Bunda qadimiy ohanglarning aks-sadolari zamonaviy talqinlar bilan yonma-yon holda yashay oladi.
3. Lirik tasvirlarda bu holat ko‘pincha ayrim ifodalarning yangicha talqinlarida, xalq maqollari, turg‘un birikmalarning qo‘llanishida ko‘zga tashlanadi. Shunday hollarda ham maqolning qo‘llanishida yangicha ma’no nozikliklari yuzaga keladi, ularning umumiy matn bilan aloqadorligida esa mahorat qirralari ko‘zga tashlanib turadi.
4. Abdulla Oripov xalq og‘zaki ijodidagi ba’zi g‘oya, motiv, obrazlardan ijodiy foydalanish bilan kifoyalanmasdan, folklordagi tasvir prinsiplarini zamonaviy she’riyatga o‘z o‘rnida tatbiq qilish jiddiy va kutilmagan ijodiy samara berishini amalda isbotlay oldi. Bu holat oxir-oqibatda she’rning mutlaqo yangi va kuchli jarangga, takrorlanmas poetik kuchga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Qo‘shjonov M. Kamalakdek serjilo (“Yillar armoni”ga so‘zboshi). – T., 1984

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

2. Qo‘shjonov M. Onajonim she’riyat. - T., 1984.
3. Normatov U. «Yoshlar haqida o‘ylar» / To‘plam. – T., 1975
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T., O‘zbekiston, 2002. – B.560.
5. Boltaboev H. Nasr va uslub. – T., Fan, 1992. – B.98.
6. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – T., Kamalak, 2014. – B.464.
7. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – B.362.
8. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T., O‘qituvchi, 1999. – B.544.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

# THERAPEUTIC EFFECTS OF POMEGRANATE SEED OIL: EXPERIMENTAL EVIDENCE AND TRANSLATIONAL PROSPECTS

**Khojieva P.D. 1, Khojiev D.Ya. 2, Tatun T.V. 3, Mijigurskaya D.D. 4**

1 Tashkent State Dental Institute, Tashkent, Uzbekistan

2 Termez Branch of the Tashkent Medical Academy, Termez, Uzbekistan

3 Grodno State Medical University, Grodno, Belarus

4 Grodno University Clinic, Republic of Belarus

## Abstract

Pomegranate seed oil (PSO) exhibits a multifaceted pharmacological profile attributable to its high concentration of punicic acid, tocopherols, and a diverse array of polyphenols. This critical review integrates current pre-clinical findings with original data generated by the authors in a nitrous oxide–induced rat model of hepatic fibrosis. PSO administration ($1\ mL\ kg^{-1}\ day^{-1}$, 30 days) attenuated collagen deposition and down-regulated key profibrotic mediators—TGFβ1, α-SMA, and CD68—by 40-45 % versus untreated fibrotic controls ($p < 0{\cdot}01$). These outcomes, together with previously documented antioxidant, anti-inflammatory, cardioprotective, and antiproliferative effects, position PSO as a promising candidate for adjunctive management of chronic fibro-inflammatory disorders.

**Keywords:** pomegranate seed oil; conjugated linolenic acid; oxidative stress; liver fibrosis; macrophage polarization; translational pharmacology.

# ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЕ ЭФФЕКТЫ МАСЛА КОСТОЧЕК ГРАНАТА: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА И ТРАНСЛЯЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ

**Хожиева П.Д. 1, Хожиев Д.Я. 2, Татун Т.В. 3, Мижигурская Д.Д. 4**

1 УО «Ташкентский государственный стоматологический институт», г. Ташкент, Узбекистан

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

2 УО «Термезский филиал Ташкентской медицинской академии», г. Термез, Узбекистан

3 УО «Гродненский государственный медицинский университет», г. Гродно, Беларусь

4 УЗ «Гродненская университетская клиника», Республика Беларусь

**Аннотация**

В обзоре систематизированы и критически оценены экспериментальные данные о терапевтическом потенциале масла косточек граната (Punica granatum seed oil, PSO). Дополнительно представлены результаты авторских исследований, демонстрирующие выраженные антифибротические и гепатопротективные свойства PSO в модели $NO^2$ индуцированного фиброза печени у крыс. Под действием PSO отмечено статистически значимое ($p < 0,05$) снижение экспрессии маркёров фиброгенеза — TGF-β1, α-SMA и CD68, что кореллировало с уменьшением плотности коллагеновых волокон по данным гистоморфометрии. Обсуждаются молекулярные мишени и перспективы трансляции полученных результатов в клиническую практику.

**Ключевые слова:** масло косточек граната, пунциновая кислота, оксидативный стресс, фиброз печени, макрофаги M2, антифибротическая терапия.

## Introduction

The resurgence of interest in phytochemicals as disease-modifying agents has foregrounded *Punica granatum* L. seed oil in experimental pharmacology. Beyond the fruit's well-characterised juice polyphenome, PSO is enriched in conjugated linolenic isomers—chiefly punicic acid—that confer potent radical-scavenging and signal-modulating capacities [1, 4]. Accumulating evidence delineates six principal domains of bioactivity: antioxidant, anti-inflammatory, cardioprotective, antifibrotic, hepatoprotective, and antiproliferative [2, 3]. Notwithstanding these advances, integrative analyses that contextualise heterogeneous in vivo protocols and in vitro assays remain scarce, complicating translational extrapolation.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

## Materials and Methods

### 2.1 Animals and Experimental Design

Thirty male Wistar rats (220 ± 15 g) were randomised into:

1. Intact control;
2. $NO_2$-induced fibrosis;
3. $NO_2$ + PSO therapy.

Chronic fibrosis was elicited by inhalational exposure to $NO_2$ (10 ppm, 4 h day, 90 days). PSO (cold-pressed, 79 % punicic acid) was administered via oral gavage for the final 30 days.

### 2.2 Outcome Measures

Liver specimens were fixed in 10 % formalin and stained with Masson's trichrome; fibrosis area was quantified using ImageJ. Immunohistochemistry employed monoclonal antibodies against TGF-β1, α-SMA, and CD68 (M2 macrophage marker). Enzymatic indices of oxidative stress (SOD, catalase, GPx) and lipid peroxidation (MDA) were assayed spectrophotometrically.

### 2.3 Statistical Analysis

Data are presented as mean ± SEM. Inter-group differences were evaluated by one-way ANOVA with Tukey's post hoc test (GraphPad 10), $\alpha = 0{,}05$.

## Results

### 3.1 Histopathology

$NO_2$ challenge induced bridging fibrosis and periportal septa occupying 27·4 ± 3·1 % of parenchymal area. PSO treatment curtailed fibrotic expansion to 14·9 ± 2·2 % ($p < 0·01$ vs. fibrosis group).

### 3.2 Immunohistochemical Profiling

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Relative optical density analyses demonstrated a 45 % down-shift in TGF-β1 and 40 % in α-SMA expression within down-shiftlivers ($p < 0·01$). CD68⁺ macrophage infiltration decreased by 38 % ($p < 0,05$).

### 3.3 Redox Homeostasis

PSO normalised MDA levels (–36 %) while augmenting SOD (+42 %), catalase (+35 %), and GPx (+39 %) activities relative to fibrotic controls ($p < 0,05$ for all).

### Systemic Pharmacodynamic Spectrum of PSO

**Table 1. Pre-clinical evidence base for PSO bioactivities**

| Effect | Experimental Model / Method | Key Markers / Outcome |
|---|---|---|
| Antioxidant | Rats (oxidative stress) | ↑ SOD, ↓ MDA |
| Anti-inflammatory | Mice (colitis, arthritis) | ↓ TNF-α, COX-2, IL-6 |
| Antifibrotic | Rats ($CCl_4$, $NO_2$) | ↓ TGF-β1, α-SMA, CD68 |
| Hepatoprotective | $CCl_4$, acetaminophen | ↓ ALT, AST, necrosis |
| Cardioprotective | Rabbits (hypercholesterolemia) | ↓ LDL, ↑ HDL, ↓ lipid oxidation |
| Antiproliferative | Tumour cell lines | ↑ caspase-3, ↓ Bcl-2, ↓ VEGF |

**Table 1 summarises the breadth of PSO bioactivity substantiated across diverse pre-clinical paradigms. Notably, the lipid-lowering and endothelial-protective results reported by Kaplan *et al.* [1] and De Nigris *et al.* [3] dovetail with our antifibrotic findings, underscoring the oil's pleiotropic modulation of redox-inflammatory circuits.**

### Discussion

The confluence of antioxidant potentiation and cytokine reprogramming observed herein coheres with the canonical antifibrotic axis involving Nrf2 activation and TGF-β1

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

suppression [5]. PSO's high punicic-to-linoleic acid ratio may underlie its superior lipid-peroxidation-blocking efficacy compared with non-conjugated ω-3/ω-6 sources. Furthermore, the attenuation of M2 polarisation expands current interpretations of PSO beyond simple antioxidation, implicating immunometabolic realignment as a contributory mechanism.

Methodological heterogeneity across published studies—dosage, extraction techniques, and duration—remains a translational barrier. Standardisation initiatives and head-to-head comparator trials against established antifibrotics (e.g., obeticholic acid) are imperative.

## Conclusion

Our data corroborate and extend the antifibrotic and hepatoprotective portfolio of PSO, delineating mechanistic intersections between oxidative stress abatement and fibrogenic pathway inhibition. These insights warrant progression to phase I safety profiling and controlled clinical exploration in early-stage hepatic fibrosis.

## References

1. Kaplan M, Hayek T, Mehta A, Johnson R, Aviram M. Pomegranate juice supplementation to atherosclerotic mice reduces macrophage lipid peroxidation, cellular cholesterol accumulation and development of atherosclerosis. *J Nutr*. 2001;131(8):2082-2089.
2. Albrecht M, Jiang W, Kumi-Diaka J, De Simon M, Cooper E. Antiproliferative effects of pomegranate seed oil on human skin tumor cell lines. *J Med Food*. 2004;7(3):1-6.
3. De Nigris F, Balestrieri ML, Williams-Ignarro S, D'Armiento FP, Ignarro LJ. Beneficial effects of pomegranate juice on oxidation-sensitive genes and endothelial nitric oxide synthase activity at sites of perturbed shear stress. *Proc Natl Acad Sci USA*. 2005;102(13):4896-4901.
4. Lansky EP, Newman RA. *Punica granatum* (pomegranate) and its potential for prevention and treatment of inflammation and cancer. *J Ethnopharmacol*. 2007;109(2):177-206.

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7**

5. Jurenka JS. Therapeutic applications of pomegranate (*Punica granatum* L.): A review. *Altern Med Rev*. 2008;13(2):128-144.

6. Gil MI, Tomás-Barberán FA, Hess-Pierce B, Holcroft DM, Kader AA. Antioxidant activity of pomegranate juice and its relationship with phenolic composition and processing. *J Agric Food Chem*. 2000;48(10):4581-4589.

7. Shahidi F, Ambigaipalan P. Phenolics and polyphenolics in foods, beverages and spices: Antioxidant activity and health effects—A review. *J Funct Foods*. 2015;18:820-897.

8. D.Ya. Khojiev, T.V.Tatun, Mijigurskaya D.D., Khojieva P.D. Aberrant right subclugent artery (clinical case). Journal of Universal Science Research, 2025; 3(6), 226-233

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

# CHO‘LPON SHE’RIYATIDA ISTIQLOL VA MA'RIFAT G‘OYALARI

**To‘yliyeva Sevara Erkin qizi**

Termiz davlat universiteti 2-bosqich talabasi

E-mail: tuyliyevasevara@gmail.com

**ANNOTASIYA:** Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast namoyondalaridan biri,millat fidoyisi bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lponning she'riyatida namoyon bo‘lgan istiqlolparvarlik va ma'rifatparvarlik g‘oyalari tahlil qilinadi.Ozodlik,uyg‘onish va milliy o‘zlikka qaytish g‘oyalari yoritiladi. Maqolada Cho‘lpon she’riyati orqali milliy uyg‘onish ruhining qanday ifodalanganiga e'tibor qaratiladi. “Go‘zal Turkiston”, “Bahorni sog‘indim”, “Xalq”, “Ko‘ngil” kabi she’rlar misolida Cho‘lponning badiiy obrazlari, tarixiy haqiqatga munosabati va erkinlik ruhini tarannum etish mahorati ko‘rsatib beriladi. Maqola Cho‘lponning ijodida xalqni uyg‘otish, milliy ongni shakllantirish, istiqlol va ma’naviy erkinlikni targ‘ib qilishga bo‘lgan intilishini yoritadi

**KALIT SO‘ZLAR:** Cho‘lpon istiqlol, ma'rifat, uyg‘onish, millat, ozodlik, she'riyat, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy istiqlol, o‘zbek she’riyati, erkinlik, ozodlik g‘oyasi, mustamlakachilik, shoirning missiyasi, millat ruhiyati, bahor timsoli, ma’naviy uyg‘onish.

**Kirish:**

O‘zbek adabiyotida millat ruhini,ozodlik istagini,va ma'rifatparvarlik ruhiyatini chuqur ifoda etgan ijodkorlardan biri - Cho‘lpondir. U XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakatining yetuk vakili sifatida milliy istiqlol va ma'rifat g‘oyalarini she'riyatda kuchli badiiy obrazlar orqali ifodaladi.

Cho‘lpon uchun she'r bu yurak ohangi, vijdon sadosi, xalq dardining ifodasidir. U so‘zda sehr yaratgan ijodkor.Uning "Buzilgan o‘lkaga" "Xalq" "Vijdon erki" singari she'rlarida faqat badiiy ifoda emas,balki o‘z davrining tarixiy va ijtimoiy haqiqatini aks

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

ettirgan. Cho‘lpon she'riyatining mohiyatini tushunish uchun ,avvalo, uning o‘tmishini, tarixini, shaxsiyatini chuqur anglash zarur. U jadid adabiyoti vakili sifatida xalqni uyg‘otish, g‘animlardan qutqarish yo‘lida milliy ongni o‘stirish va istiqlol sari yetaklashni asosiy burch deb bildi. Va bu yo‘ldan faqat oldinga qadam tashladi. Qo‘rmasdan o‘z she’rlarida erkinlik, va ozodlik istagi, qullikga qarshi narozilik, mustamlakachilik zulmiga qarshi isyon ohangi yaqqol seziladi. Bu ohangni esa "Go‘zal Turkiston" she'rida ham ko‘rishimiz mumkin.

Ol bayrog‘ingni qalbing uyg‘onsin,

Qullik asorat barchasi yonsin.

Qur yangi davlat, yovlar o‘rtansin,

O‘sib Turkiston qadding ko‘tarsin,

Yayrab, yashnab o‘z vataning gul bog‘larida.

Bu misralarda shoir millatni uyg‘onishga, o‘zligiga qaytishga da'vat etadi. Cho‘lponning istiqlol g‘oyasi nafaqat siyosiy ozodlik, balki ruhiy, ma'naviy erkinlikni ham o‘z ichiga oladi.

Cho‘lpon jadid ma'rifatining faol shaxslaridan biri edi.U xalqni jaholatdan, e'tiqodsizlikdan, ma'naviy qullikdan qutqarishning yagona yo‘li - bu ilm, ma'rifat va erkin hayot deb bilgan. Kuz qo‘ynida turgan shoir "Bahorni sog‘indim" deydi. Bahor shunchaki fasilgina emas, balki majoziy ma'no ham kasb etadi. Shoir uchun mustamlakachilik davri go‘yo kuz izg‘irin kabi bo‘lsa, bahor istiqlol va porloq istiqbol haqidagi yaxshi niyatlani anglatadi.

"Bahorni sog‘indim"

Bahorni sog‘indim, bahorni...

Ko‘rganda yerlar, olamlar to‘la qorni.

Qor...qor-

Zaharli ninalar kabi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Ko‘zlarga qarab oqar...

Qaydasiz, qaydasiz

Latif siynalar kabi

Dalalarga singgan bahor?

Ushbu she’rdan ham shoir o‘z his tuyg‘ularini to‘kib yozganiga guvoh bo‘ldik.

"Xalq" she'rida shoirning yurt ozodligi haqidagi yorug‘ o‘ylari ham o‘z ifodasini topgan.

Xalq istagi - ozod bo‘lsin bu o‘lka,

Ketsin uning boshidan ko‘lanka.

Bir qo‘zg‘alur, bir ko‘pirar, bir qaynar,

Bir intilur, bir hovliqar, bir o‘ynar.

Yo‘qlikni-da ochlikni-da yo‘q etar,

O‘z yurtini har narsaga to‘q etar...

Bu misralarda shoir nafaqat shaxsiy kechinmalarni, balki milliy orzularni aks ettirgan. Bu Cho‘lpon she'riyatining asosiy ruhini tashkil etadi. Xalqni uyg‘otish, unga yo‘l ko‘rsatish, va ozodlik sari yetaklashdir. "Ko‘ngil" she'ri ushbu she'r Cho‘lponning otashin ruhi aks etgan. U ko‘ngilga qarata murojaat qilib, o‘zini qiynayotgan barcha savollarni beradi, dil dardlarini bayon etadi hamda uni hamisha ozod va hur bo‘lib qolishga chorlaydi.

Ko‘ngil, sen munchalar nega

Kishanlar birla do‘stlashding?

Na faryoding, na doding bor,

Nechun sen muncha sustlashding?

Cho‘lpon o‘z she'rlari va harakatlari bilan so‘ngi nafasigacha xalqni hurlikka, ozodlikka da'vat etdi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam Cho‘lponning she'riyatida istiqlol va ma'rifat g‘oyalari chuqur aks etgan. U faqat shoir emas, balki millatning fidoyisi, azob-uqubatlarda ham orzu bilan yashagan ruhiy yetakchidir. Uning she’rlari bugun ham O‘zbek yuragida vatan, til, millat va ozodlik haqidagi tuyg‘ularni uyg‘otishda davom etmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.Abdulhamid CHo‘lpon Binafsha  Toshkent "Adabiyot" 2021

2.Quronov D." Ilk avval ko‘zimni ishq bilan ochdim... ."/ CHo‘lpon.SHe'rlar.- T.: Akademiknashr, 2021

3.Ozod Sharafiddinov CHo‘lponni anglash Toshkent "Yozuvchi" nashriyoti 1994

4.Bahodir Karimov. CHo‘lpon va tanqid. Adabiyot 2004

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH
ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

# “MAQSADGA INTILISH – SHIJOAT BILAN BOSHLANGAN G‘ALABA”

**Pardayeva Ashirgul Botirovna**

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada inson hayotidagi eng muhim omillardan biri — maqsad qo‘yish, unga yetish uchun intilish, rejali harakat qilish va ichki kuch — shijoatning ahamiyati yoritilgan. Hayotda muvaffaqiyatga erishgan shaxslar tajribasi, mashhur olimlar va mutafakkirlarning fikrlari asosida shaxsiy taraqqiyotda intilishning roli, maqsadsizlikning salbiy oqibatlari va rejali harakatning natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada atrof-muhitning, jamiyat va yaqin kishilarning ta’siri, insonning ichki dunyosi bilan qanday uyg‘unlikda harakat qilishi haqida ham fikr yuritiladi.Maqolada Konfutsiy, Albert Eynshteyn, Seneka, Napoleon Hill kabi allomalar fikrlari bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga oid nutqidan iqtibos keltirilib, zamonaviy hayotda maqsadli yashash va shijoatli intilishga bo‘lgan ehtiyoj asoslab beriladi. Asosiy urg‘u har bir insonning o‘z hayoti uchun mas'uliyatli bo‘lishi, orzularni maqsadga aylantirib, unga intilish orqali muvaffaqiyat sari yo‘l olishiga qaratilgan.Maqola motivatsion ruhda yozilgan bo‘lib, ayniqsa yoshlar, o‘z yo‘lini endi boshlayotganlar, qaror topishda qiynalayotganlar uchun yo‘lko‘rsatkich vazifasini o‘taydi. Harakat, ishonch, iroda, qat’iyat va rejalilik — buning barchasi g‘alabaning asosiy sharti ekani hayotiy misollar orqali asoslab beriladi.Maqola orqali quyidagi fikrlar asosiy yo‘nalish sifatida ilgari suriladi:

– Maqsadsiz harakat yo‘ldan adashishga olib keladi;

– Shijoatli inson muammolarni imkoniyatga aylantira oladi;

– Intilishsiz orzular faqat tasavvur bo‘lib qoladi;

– Rejasiz harakat natijasiz bo‘ladi;

– Har bir g‘alaba aslida ichki kurashdan boshlanadi.

Shuningdek, maqolada jamiyat, atrofdagilarning ta’siri, ijtimoiy muhitning maqsadli yashashga ta’siri ham yoritilgan. Har bir inson o‘z hayotining bosh muhandisi ekani,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

orzularini real maqsadga aylantirib, unga intilishi shartligi ta’kidlanadi. Bunda mustaqil fikr, kuchli iymon, sabr va doimiy harakat asosiy vosita bo‘lishi kerakligi urg‘ulanadi.Mazkur maqola asosiy maqsadini yo‘qotayotgan, ishonchi so‘nayotgan yoki o‘z yo‘lini izlayotgan har bir inson uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, yosh avlod, o‘quvchilar, talabalar, yangi ish boshlayotgan mutaxassislar, o‘z ustida ishlayotgan insonlar uchun maqoladagi g‘oyalar yo‘l-yo‘riq vazifasini o‘taydi.

**KALIT SO‘ZLAR:** maqsad, intilish, shijoat, iroda, orzu, reja, muvaffaqiyat, harakat, qat’iyat, motivatsiya, shaxsiy rivojlanish, mas’uliyat, ruhiy quvvat, ichki kuch, o‘z ustida ishlash, ijobiy fikrlash, ilhom, taraqqiyot, yo‘l tanlash, yoshlar maqsad, iymon, jamiyat, prezident nutqlari, ilhom, mehnat, hayot falsafasi, shaxsiy yutuq, sabr.

Inson hayoti — bu yo‘l. Bu yo‘lning bor yo‘g‘i ikki tomoni bo‘ladi: biri harakat bilan to‘ldirilgan maqsad sari intilish, ikkinchisi esa bo‘sh yurak, loqayd ong, samarasiz kunlar. Hayotda yutuqqa erishgan har bir insonning ichki dunyosida bir kuch yashaydi — bu kuch maqsad deb ataladi. Maqsadsiz yashash — kemasiz dengizda suzishga urinishga o‘xshaydi. Kema bor — lekin yo‘nalish yo‘q. Maqsad esa yo‘l beradi, uni ko‘zda tutish esa harakatga undaydi. Harakat esa shijoatni uyg‘otadi, shijoat esa g‘alabaga eltadi.Bugungi zamonda yoshlar oldida cheksiz imkoniyatlar ochilmoqda. Ammo ularni to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘z salohiyatini to‘g‘ri yo‘lda ishlatish uchun, avvalo, inson o‘zida qat’iy maqsad, kuchli istak va shijoatli ruhni tarbiyalashi zarur. “Maqsadga intilish – shijoat bilan boshlangan g‘alaba” iborasi bekorga aytilmagan. Bu bir murakkab, ammo g‘oyat mantiqiy zanjirdir: maqsad tug‘iladi, unga yetish uchun intilish paydo bo‘ladi, harakat boshlanadi, harakatga ruh beradigan shijoat kuchayadi, shunda g‘alaba haqiqatga aylanadi.Maqsad inson ongining eng muhim mahsulidir. Qadimiy faylasuf Konfutsiy shunday degan: “Maqsad yo‘q joyda rivojlanish bo‘lmaydi, harakat yo‘q joyda o‘sish to‘xtaydi.” Inson o‘z hayotining bosh muallifi bo‘lishni xohlasa, avvalo o‘ziga savol berishi lozim: “Men qayerga yetmoqchiman? Nima uchun yashayapman?” Shu savollarga aniq javob topgan inson hech qachon yo‘ldan adashmaydi.Shijoat – bu ruhiy uyg‘oqlik, kuchli istak, irodaviy harakatning jamlanmasi. U holda ishlayotgan inson, hatto to‘siqlarda ham imkoniyat ko‘radi. Shijoatli shaxs xatolardan cho‘chimasdan, ulardan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

saboq olib harakatda davom etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlarga murojaat qilib shunday degan edi:

"Bugungi yoshlar ertangi taraqqiyotning hal qiluvchi kuchidir. Ular har bir kunni maqsad bilan yashab, shijoat bilan harakat qilishi kerak." Bu fikr yoshlarga bo‘lgan ishonch va ularning maqsadli yashashi qanday yutuqlarga olib kelishini aniq ko‘rsatadi.Inson yolg‘iz mavjudot emas. Uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, do‘stlar, ustozlar va jamiyatdagi qadriyatlar uning maqsadga intilishiga bevosita ta’sir qiladi. Ijobiy muhitda yashovchi, qo‘llab-quvvatlovchi insonlar orasida bo‘lgan odam, tabiiyki, ko‘proq intiladi, tezroq o‘z yo‘lini topadi.Bugun dunyodagi eng muvaffaqiyatli insonlar — bu o‘z vaqtida katta orzularni maqsadga aylantirgan, unga qat’iy ishonib, doimiy intilgan va harakatdan to‘xtamagan odamlar. Ilon Mask, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy — ularning har biri o‘z davrida o‘z maqsadiga intildi va u yo‘lda to‘xtamadi.Ko‘p odamlar hayotda katta natijaga erisha olmaydi, sababi ular orzu qiladi, lekin intilmaydi. Farq juda oddiy: orzu bu istak, intilish esa harakat.Intilish inson ichidagi ishonch, iroda va sabrni yuzaga chiqaradi. Aynan shu kuch bilan inson birinchi qadamni qo‘yadi, yiqilsa ham qayta turadi, ortiqcha gaplarga e’tibor bermay, o‘z yo‘lidan boraveradi.Hayotingizdagi har bir katta natija — rejali ishlarning mahsulidir. Bugungi kichik qadamlar — ertangi katta natijalarning sababi. Masalan, har kuni 10 sahifa kitob o‘qish — bir yilda o‘nlab asar bilan boyigan ong degani. Har kuni bir soat jismoniy mashq — sog‘lom hayotning garovi.Buyuk faylasuf Seneka shunday degan edi:"Kimki qaysi portga qarab suzayotganini bilmasa, hech bir shamol unga foyda keltirmaydi." Demak, inson o‘z oldiga aniq va ravshan maqsad qo‘ymasa, hayot uni istagan tomonga sudrayveradi. Maqsad — bu nafaqat istak, balki rejali harakatlar uchun asosdir.

Ko‘pchilik insonlar yo‘lga chiqqanida eng katta to‘siq — bu boshqalar fikridir. "Bo‘lmaydi", "sen qila olmaysan", "keragi yo‘q" degan gaplar ko‘p. Lekin bu gaplar faqat zaiflarni chalg‘itadi. O‘z maqsadiga ishongan va unga sadoqatli bo‘lgan insonni bu gaplar ortga tortolmaydi. Ota-onamiz, ustozlarimiz, do‘stlarimiz — bu bizning ichki olamimizni shakllantiruvchi ijtimoiy kuchdir. Ular orasida sizga ishonadigan, sizni qo‘llab-quvvatlaydigan insonlar ko‘proq bo‘lsin. Ammo ular bo‘lmasa ham — sizning ichki ishonchingiz yetarli bo‘lishi kerak.Shijoatli inson hech qachon qiyinchiliklardan qo‘rqmaydi, balki ularni yangi imkoniyat sifatida qabul qiladi. U har doim o‘ziga ishonadi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

va maqsadiga erishish uchun bor kuchini sarflaydi.Shijoatni rivojlantirish mumkin. Buning uchun:

• O‘z-o‘ziga ishonchni oshirish: O‘z qobiliyatlariga ishonish, o‘zini qadrlash va o‘ziga hurmat bilan qarash.

• Qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik: Qiyinchiliklarni o‘rganish va ularni yengish uchun harakat qilish.

• Sabr-toqatli bo‘lish: Maqsadga erishish uchun vaqt kerakligini tushunish va sabr bilan harakat qilish.

•Motivatsiyani saqlash: Maqsadga erishishning sabablarini eslab turish va o‘zini doimiy ravishda rag‘batlantirib borish.

• O‘rnak olish: Shijoatli va muvaffaqiyatli insonlarning hayotidan o‘rnak olish.

Maqsadga intilish va shijoat – bu g‘alabaga eltuvchi yo‘ldir. Ammo, bu yo‘l oson bo‘lmasligi mumkin. Ko‘plab to‘siqlar, qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklar bo‘lishi mumkin. Ammo, shijoatli inson hech qachon taslim bo‘lmaydi. U har bir muvaffaqiyatsizlikdan saboq oladi va yanada kuchliroq bo‘ladi.Bugun ko‘plab odamlar tirishqoq — ishlaydi, o‘qiydi, yuguradi. Ammo savol: bu harakatlar qayerga olib boryapti? Maqsadsiz yurilgan yo‘l, go‘yo kompasiz cho‘lda yurishga o‘xshaydi. Oxiri nima? Charchoq, ruhiy tushkunlik va bo‘shliq.Maqsad — bu ichki kompas. U sizni chalkashlikdan, vaqtni behuda sarflashdan, boshqalarning hayotini ko‘chirishdan saqlaydi. Maqsadsiz harakat esa boshqalar nimani aytsa, o‘shanga ergashishdir. O‘z yo‘lingiz yo‘q bo‘lsa, doim boshqalarning izida qolaverasiz.Shunday hayot tarzini tasavvur qiling: siz ertalab uyg‘onasiz, ishga borasiz, qaytasiz, ovqatlanasiz, uxlaysiz… Kunlar o‘tadi, yillar o‘tadi. Ammo ichingizda savol: “Men nimaga erishmoqchiman?” — degan savol qolaveradi.Maqsad sizga ruhiy kuch beradi. Har bir to‘siqda sabr qilasiz, har bir muvaffaqiyatda shukr qilasiz. Maqsadingiz bo‘lsa, charchoqni ham, tanqidni ham yengasiz. Chunki ichingizda bir narsa doim sizni olg‘a yetaklaydi — o‘zingiz tanlagan yo‘l, orzu, niyat.Agar bugungi kungacha faqat “harakat” qilib yurgan bo‘lsangiz, bugundan boshlab “maqsadli harakat” qilishni boshlang. Yozing, reja tuzing, duo qiling. Har kuni ertalab uyg‘onganingizda, savol bitta bo‘lsin:

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

"Bugun men o'z maqsadimga bir qadam yaqinlashamanmi?" Maqsadsiz yurish — yo'ldan adashishdir. Maqsadli yashash esa o'zligingizni topish, hayotingizni ma'noli qilish va orzu qilgan manzilga yetishdir.Orzular barchada bo'ladi. Ammo ularni faqat intilish kuchi haqiqatga aylantiradi. Napoleon Hill ta'kidlaganidek: "O'ylangan fikrga ishonch qo'shilsa, u reja, reja esa harakatga, harakat esa natijaga aylanadi." Intiluvchan inson, hatto muvaffaqiyatsizliklardan ham saboq oladi. Intilish — bu ruhiy kuchdir, u insonni faollikka undaydi, dangasalik va ikkilanishni yengadi.

Hayot har doim ham silliq kechmaydi. U sinovlardan, to'siqlardan, kutilmagan vaziyatlardan iborat. Lekin aynan shunday paytlarda insonning asl qiyofasi namoyon bo'ladi. Ba'zilar muammo ko'rsa chekinadi, boshqalar esa – shijoatlilar – bu muammoning ichidan imkoniyat yaratadi. Ular uchun har bir to'siq yangi pog'ona, har bir muammo – o'sish imkoni.Shijoatli inson muammoni emas, yechimni ko'radi. Shijoatli inson "nima uchun bu menga bo'ldi?" deb emas, balki "men bu vaziyatdan qanday saboq olaman?" deb o'ylaydi. Bu esa uni boshqalardan ajratib turadi. Haqiqiy yutqazgan inson – bu yiqilgan emas, balki qayta turishni xohlamagan insondir. Shijoatli inson esa yiqilishni tajriba deb biladi. Uning har bir xatosi — poydevor, har bir sinovi — dars, har bir muvaffaqiyatsiz urinish — yangi yondashuvga olib boradigan kalitdir.Muammolar nafaqat tashqi to'siqlar, balki ko'pincha ichki shubhalar, qo'rquv va ikkilanishlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shijoatli inson ichki holatini boshqara oladi. U o'z ustida ishlaydi, fikrini ijobiy tarafga yo'naltiradi, motivatsiyani izlaydi, kerak bo'lsa, boshqalarga ham ruh bag'ishlaydi.Hayot har kuni bizga ikkita yo'lni taklif qiladi: muammolarda qulash yoki ulardan zinapoya yasab, yuqoriga ko'tarilish. Qaysi birini tanlash o'zimizga bog'liq. Shijoatli inson esa ikkinchi yo'lni tanlaydi — u har bir og'irlikni dars sifatida qabul qiladi.Albert Eynshteyn aytganidek: "Men daholik qilmaganman, men hech qachon to'xtamaganman". Bu fikrda juda katta haqiqat mujassam: muvaffaqiyatga olib boradigan eng muhim narsa – tinimsiz intilishdir. Maqsadga yetish uchun faqat orzu qilish yetarli emas, unga tomon yurish, yo'lda bo'lish kerak. Har kuni kichik bo'lsa ham harakat qilish, o'z ustida ishlash muhim.Bugungi kunda millionlab yoshlar orzu qiladi – katta bo'lishni, mashhur bo'lishni, boy bo'lishni, mamlakatga foydali bo'lishni. Ammo faqat orzu bilan hech narsa o'zgarmaydi. Orzular yechim emas – ular yo'l boshlanishi. Intilish esa harakatni boshlashdir.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH
ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Shavkat Mirziyoyev: “Agar yoshlarimizda maqsad bo‘lsa, unga intilish bo‘lsa, bu – eng katta kuch. Biz faqat shijoatli, intiluvchan yoshlar bilan yurtimizni yuksaltiramiz.” Bu juda katta haqiqat. Yoshlar faqat orzu qilib qolmasdan, har kuni shu orzu sari harakat qilsa – natija bo‘ladi. Aks holda orzu faqat “kun kelib” degan umid bilan umr o‘tadi.Agar siz harakat qilmasangiz, boshqa birov sizning orzu qilgan narsangizni amalga oshiradi. Chunki dunyoda istaklar ko‘p, lekin harakat qiluvchilar kam. Harakat qilgan yutadi. Intilgan yetadi.“Siz orzu qilayotgan hayot – kimningdir bugungi rejasidir.”Ko‘p insonlar maqsad sari intilishda qadam qo‘yadi, harakat qiladi, o‘zini qiynaydi. Ammo yakunda hech qanday natijaga erishmaydi. Sababi oddiy: harakat bor, lekin reja yo‘q. Rejasiz harakat – yo‘nalishsiz kemaga o‘xshaydi: suzadi, lekin qayerga borayotgani noma’lum. Bu esa, eng katta kuchni ham havoga sovuradi.“Intilish – kuch, reja – yo‘nalish. Yo‘nalishsiz kuch esa ko‘p hollarda samarasiz bo‘ladi.” Shuning uchun harakat qilishdan oldin reja tuzish, bosqichma-bosqich o‘sishni belgilash, natijani ko‘zlash – g‘alabaga olib boruvchi yagona to‘g‘ri yo‘ldir.Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi olimlar o‘z ilmiy izlanishlarini muntazam tarzda rejalashtirib, tajribalar asosida harakat qilgan. Shuning uchun ularning asarlari bugun ham ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.Yoshlarimiz ko‘p narsani xohlaydi: til o‘rganish, biznes qilish, grant yutish, xalqaro tanlovlarda qatnashish. Ammo rejasiz urinish natijasiz bo‘ladi. Biror tilni o‘rganmoqchimisiz? Reja tuzing. Kuniga necha soat, qanday materiallar bilan, qanday muddatda – buni aniqlasangiz, muvaffaqiyat aniq.Kimki g‘alaba sari intilsa, u reja tuzishi shart. Chunki rejali harakatgina natija beradi. Intilish – harakatni boshlaydi, reja – uni yo‘nalantiradi, qat’iyat – uni yakunlaydi. Ana shunda g‘alaba tug‘iladi.

Har kuni ertalab turib kitob o‘qish, yugurish, dars qilish, rejaga rioya etish – bular ko‘rinishi oson, ammo amalda juda og‘ir. Chunki bu jarayonda inson o‘z “qulaylik zonasi” bilan kurashadi. Ko‘pchilik: “Keyinroq qilaman”, “hali vaqt bor”, “boshqa safar” deya bu ichki kurashni yengolmaydi. Shuning uchun ular orzusi sari yura olmaydi.Ammo intiluvchan insonlar ichki ovozini yengadi.Ular xohlamasa ham o‘rganadi, qiyin bo‘lsa ham bardosh beradi, zeriksa ham harakat qiladi.Ular ko‘zga ko‘rinmaydigan ichki janglarni yengib, tashqi g‘alabalarni qo‘lga kiritadi.Hayot – bu doimiy harakat, o‘sish va o‘z ustida ishlash yo‘lidir. Bu yo‘lda har bir insonning orzulari, ulkan maqsadlari, niyatlari bor. Biroq shunchaki orzu qilish kifoya emas – unga yetishish uchun qat’iyat, intilish, shijoat va eng muhimi, harakat kerak. Maqsad sari intilayotgan inson o‘z oldiga aniq

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

yo‘nalish qo‘yadi, har bir qadamini rejaga soladi va istalgan muammoga yechim topishga harakat qiladi.

Shijoatli inson o‘z orzulari yo‘lida charchamay harakat qiladi. U qiyinchilikdan cho‘chimasdan, uni imkoniyatga aylantirishga intiladi. Intilishsiz orzular faqat xayolda qoladi. Ammo astoydil belgilangan maqsad sari intilayotgan, har kuni o‘zini yengib harakat qilayotgan insonning yutug‘i muqarrar bo‘ladi. Har bir g‘alaba, avvalo ichki kurashni yengish bilan boshlanadi.

Hayotda muvaffaqiyatga erishgan buyuk shaxslar – o‘zining qobiliyati, sabri, rejaliligi va irodasi bilan orzularini haqiqatga aylantirgan. Ularning har biri eng avvalo o‘z ustida ishlagan. Bugungi kunda ham ilm-fan, texnologiya, tadbirkorlik, sport, san’at sohalarida yetuk bo‘lgan yoshlar aynan shijoat bilan yo‘l bosganlar – ular mashaqqatlardan cho‘chimagan, o‘z imkoniyatiga ishongan, sustkashlikni yenggan va hech qachon taslim bo‘lmaganlar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Napoleon Hill — “Fikrlang va boy bo‘ling”

2. Robin Sharma — “Uyg‘on va yashashni boshlang!”

3. Shavkat Mirziyoyev nutqlari va ma’ruzalaridan iqtiboslar

4. Paulo Koelo — “Alkimyogar”

5. Albert Eynshteynning motivatsion iqtiboslar

6. Abdulloh Nasriddin — “O‘zgarish sari qadam”

7. Abu Rayhon Beruniy — “Tanlangan asarlar”

8. Ibn Sino — “Tib qonunlari”

9. Stephen Covey — “Yuqori samarali odamlarning 7 odati”

10. Jim Ron — “Shaxsiy taraqqiyot tamoyillari”

11. Dale Carnegie — “Do‘stlar orttirish va insonlarni o‘ziga rom qilish san’ati”

12. Brian Tracy — “Maqsad sari harakat”

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

13. John C. Maxwell — "Yetakchilik haqida 21 muhim qonun"

14. Viktor Frankl — "Ma'noga intilgan inson"

15. Internet maqolalari va maqomli bloglar:

www.zamin.uz, www.kun.uz, www.qalampir.uz saytlariPsixologik rivojlanish va motivatsiya sahifalari

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Yoshlar agentligi chiqargan rasmiy nashrlar

17. Turli motivatsion video va nutqlar (TED Talks, YouTube kanallari)

18. O'zbekiston yoshlari uchun ishlab chiqilgan "Maqsadli rejalashtirish va o'zini boshqarish" metodikalari

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

# ADABIYOT- MILLIY O‘ZLIKNING KO‘ZGUSI

**To‘yliyeva Sevara Erkin qizi**

Termiz davlat universiteti 2-bosqich talabasi

E-mail: tuyliyevasevara@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada adabiyotning milliy tafakkur va o‘zlikni anglashdagi o‘rni haqida so‘z boradi.Milliy adabiyot asarlari orqali xalqning ma’naviyati, qadriyatlari va tarixi va ruhiy olami aks etishi tahlil qilinadi. Shu bilan birga bugungi yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashda adabiyotning tutgan o‘rni yoritilgan. Maqolada adabiyotning milliy o‘zlik, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarni saqlashdagi muhim o‘rni tahlil qilinadi. Avvalo, adabiyot xalq ruhini, milliy ongni va davrga xos fikrlarni ifoda etuvchi san’at vositasi deb ta’kidlanadi. Mumtoz ijodkorlar (Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Ogohiy) orqali o‘zbek xalqining ma’naviy merosi, falsafiy-axloqiy qadriyatlari hamda tarixiy tajribalari shakllangani ko‘rsatiladi. Keyingi bosqichda jadid adabiyoti (Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqa ziyolilar) nasroni, milliy uyg‘onish va ijtimoiy adolat g‘oyalariga xizmat qilgani, “O‘tkan kunlar” va “Kecha va kunduz” kabi asarlar orqali tarixiy xotira tiklangani bayon etiladi. Maqolaning yakuniy qismida mustaqillikdan keyingi adabiyotda erkinlik, vatanparvarlik va milliy qadriyatlar mavzulari kuchli namoyon bo‘lgani (Erkin Vohidov, Abdulla Oripov), global axborot davrida esa yoshlarni ma’naviy tarbiya qilishda adabiyotning roli qayd etiladi. Adabiyot “yurak nidosi”, “xalq ruhi” va “millat ko‘zgusi” sifatida, yosh avlodni vatanga muhabbat, halollik, sabr-toqat kabi qadriyatlar bilan shakllantiruvchi kuch sifatida yuksak baholanadi.

**KALIT SO‘ZLAR:** adabiyot, Navoiy, Bobur, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, milliy o‘zlik, ma'naviyat, tarixiy xotira, badiiy asar, yoshlar tarbiyasi, mustaqillik davri adabiyoti, vatanparvarlik, global axborot davri, ma’naviy tarbiya, yosh avlod, xalq ruhi, millat ko‘zgusi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

**Kirish:**

Adabiyot-bu inson ruhining, xalq ma'naviyatining davr zamonasining so‘z orqali ifodalangan aksidir. Har bir millat o‘zligini anglashda, tarixni unutmaslikda, ma'naviy ustunlikka erishishda adabiyotga tayanadi. Adabiyot nafaqat san'at, balki xalq tafakkuri, g‘ururi va tarixiy xotirasidir.Ayniqsa, milliy o‘zlik tushunchasi bugungi globallashuv davrida o‘z ahamiyatini yanada oshirmoqda. Adabiyot - ana shu o‘zlikni saqlab qoluvchi, uni avloddan avlodga yetkazuvchi ko‘zgudir. Adabiyot xalq tafakkurining mahsuli. Sifatida milliy ruhni aks ettiradi. Bizga saboq beradi biz uchun eng yaxshi muallim.

Ustoz yozuvchimiz O Sharafiddinov aytganidek: " Adabiyot - bu hayot darsligi." Har bir adabiy asar ortida o‘sha millatning tarixiy kechinmalari, g‘ururi, urf - odatlari, orzu - umidlari yashiringan bo‘ladi. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogohiy kabi mumtoz adiblarning asarlari o‘zbek xalqining ma’naviy xazinasini tashkil etadi. Ayniqsa, Navoiy ijodi faqat adabiy yoki estetik qiymatga emas, balki xalq tafakkurining rivojlanishiga ham xizmat qilgan.

Navoiy o‘z "Xamsa"sida sharq falsafasi, axloqiy tarbiya, ijtimoiy adolat g‘oyalarini ilgari surgan bo‘lsa , Bobur "Boburnoma" asarida o‘z zamonasining tarixiy, ijtimoiy manzarasini yozma adabiyot vositasida ifodalab kelajak avlodga bebaho meros qoldirgan.

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotida yangi bosqich - jadidlar davri boshlanadi. Bu davr adabiyoti milliy uyg‘onish, o‘zlikni anglash, xalqni jaholatdan chiqarish yo‘lida xizmat qilgan. CHo‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ziyolilar o‘z asarlari orqali milliy g‘urur, erkinlik, tafakkurga da'vat, vatanga muhabbat g‘oyalarini ilgari surdilar.

CHo‘lponning " Kecha va kunduz" romanida tarixiy adolatsizliklar,xalq hayotidagi og‘riqli nuqtalar ,erk va ozodlikka intilish holatlari tasvirlanadi. Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romani esa adabiyot orqali tarixiy xotirani tiklab, o‘zbek xalqining ijtimoiy, siyosiy o‘zligini anglashida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu asarlar o‘z tarixiga boshqa ko‘z bilan qarashga, milliy birlik g‘oyasini chuqurroq his qilishga intildi. 1991-yildan so‘ng, ya'ni O‘zbekiston mustaqilligini qo‘lga kiritgach, adabiyotimizda milliylik ruhiga qaytish, tarixiy shaxslar va voqealarni yangicha nigohda talqin etish jarayoni boshlandi.Yangi adabiyotd istiqlol, vatan, ozodlik, qadriyat va urf-odatlarga sodiqlik kabi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

tushunchalar asosiy mavzuga aylandi. Erkin Vohidovning " Oʻzbegim" she'ri xalq ruhining gʻururli nidosidir. Abdulla Oripovning " Oʻzbekiston" she'rida mustaqil vatanga boʻlgan sevgi, fidoyilik ruhi mujassam.Bu asarlar orqali oʻzbek adabiyoti yosh avlodga milliy oʻzlikni his etish uni qadrlash, asrab - avaylash gʻoyasini singdira oldi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar koʻplab axborot oqimlari ichida yashamoqda. Ular ongini, tafakkurini, ruhiyatini sogʻlom saqlashda adabiyot beqiyos rol oʻynaydi. Badiiy asarlar axloqiy me’yorlar manbayi, ijtimoiy ong shakllanishida asosiy vositadir. Yoshlar adabiyot orqali vatanga muhabbat, ota- onaga hurmat, halollik, rosdgoʻylik, sabr - toqat kabi qadriyatlarni oʻrganadi.

Ayniqsa, maktab va oliy oʻquv yurtlarida adabiyot fanining chuqur oʻrganilishi ularni ma'naviy yetuk qilib voyaga yetkazadi.Kitob oʻqigan yosh fikrlaydigan,savodli, oʻzini va xalqini qadrlaydigan shaxsdir. Shuni xulosa qilamanki, adabiyot - milliy ruhni saqlovchi, xalq tafakkurini boyituvchi, tarixiy xotirani mustahkamlovchi, kuchli vositadir. Milliy oʻzlikni anglash, uni ifodalash va saqlab qolishda adabiyotning roli beqiyosdir. Har bir xalq oʻz Adabiy merosi bilan faxrlanadi. Har bir millat adabiyot orqali oʻzining kimligini aniqlaydi.

Bugungi kunda biz yosh avlod adabiyotdan ilhom olib tariximizni, oʻzligimizni, gʻururimizni unutmasligimiz balki uni ulugʻlashimiz zarur. Chunki adabiyot - bu yurak nidosi, xalq ruhi ,millat koʻzgusidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1..Абдулла Орипов Узбекистон  Касида Узбекистон ЛКСМ Марказий Комитети " Ёш гвардия" нашриёти Тошкент -1972

2.Абдулла Кодирий Утган кунлар Ғафур Ғулом номидаги адабиёот ва санъат нашриёти Тошкент - 1974

3.Ф. К. Каримов Узбек адабиёоти тарихи " Укитувчи "нашриёти -1975

4. Дилмурод Куронов Чулпон Насри поэтикаси "Шарк" нашриёт- Матбаа акциядорлик компанияси  Бош тахририяти Тошкент - 2004

5.Abdulhamid CHoʻlpon Kecha va kunduz "Ilm - ziyo -zakovat" Toshkent - 2019

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

# KATTALARDA QIZAMIQ ETIOLOGIYASI, EPIDEMIOLOGIYASI, PATOGENEZI, KLINIKASI VA DAVOLASH USULLARI

**Jo'raboyeva Gulnoza Ravshan qizi**

Respublika tez tibbiy yordam markazi Surxondaryo filiali

Muzrabot tumani navbatchi shifokori

gulnoza.j.r97@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada qizamiqning etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenezi, klinik ko'rinishi, diagnostika tamoyillari va oldini olish bo'yicha zamonaviy ma'lumotlar keltirilgan. Differensial diagnostika jadvali va yuqumli kasalliklar shifoxonasida katta yoshli bemorda qizamiqni shaxsiy kuzatishning klinik holati keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** qizamiq , emlash , differentsial diagnostika , klinik ko'rinish , infektsiya

# ЭТИОЛОГИЯ, ЭПИДЕМИОЛОГИЯ, ПАТОГЕНЕЗ, КЛИНИКА И МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ КОРИ У ВЗРОСЛЫХ

**Джурабоева Гульноза Равшан кызы**

Сурхандарьинский филиал Республиканского центра скорой медицинской помощи

Дежурный врач Музработского района

gulnoza.j.r97@gmail.com

**Аннотация.** В статье представлены современные сведения об этиологии, эпидемиологии, патогенезе, клинических проявлениях, принципах диагностики и профилактике кори. Представлены дифференциально-диагностическая таблица и

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

клинический случай личного наблюдения за корью у взрослого пациента в инфекционном стационаре.

**Ключевые слова:** корь, вакцинация, дифференциальная диагностика, клинические проявления, инфекция

# ETIOLOGY, EPIDEMIOLOGY, PATHOGENESIS, CLINICS AND TREATMENT METHODS OF MEASLES IN ADULTS

**Ju'raboyeva Gulnoza Ravshan qizi**

Republican Emergency Medical Center Surkhandarya Branch

Doctor on duty, Muzrabot district

gulnoza.j.r97@gmail.com

**Abstract.** The article presents modern information on the etiology, epidemiology, pathogenesis, clinical manifestations, diagnostic principles and prevention of measles. A differential diagnostic table and a clinical case of personal observation of measles in an adult patient in an infectious diseases hospital are presented.

**Keywords:** measles , vaccination , differential diagnosis , clinical manifestations , infection

## Kirish.

Yuqumli kasalliklar tarkibida qizamiq bugungi kunda ma'lum bo'lgan eng yuqumli kasalliklardan biridir. Ushbu infektsiya deyarli 100% sezuvchanlik bilan tavsiflanadi va emlash qizamiq bilan kurashishning eng samarali usuli hisoblanadi. Emlanmagan odamlar hayotlari davomida qizamiqga moyil bo'lib qoladilar va har qanday yoshda kasal bo'lib qolishlari mumkin. JSST ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida qizamiq bilan bog'liq noqulay vaziyat mavjud.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

Hozirgi vaqtda qizamiqdan har qanday yoshdagi odamlar aziyat chekmoqda. Qizamiq - o'tkir virusli antroponoz bo'lib, u intoksikatsiya, yuqori nafas yo'llarining kataral shikastlanishi, makulopapulyar ekzantema va og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida patognomonik toshmalar bilan kechadi. Kasallikning qo'zg'atuvchisi Paramyxoviridae oilasiga mansub Morbillivirus jinsining RNK genomik virusidir. Virusli zarrachalar sharsimon shaklda, diametri 120–250 nm, tashqi villi membrana, spiral nukleokapsid va gemagglyutininga ega. Virus gemagglyutinatsiya, gemolizlash va komplementlarni bog'lash faolligi bilan ajralib turadi. Qizamiq virusi fizik va kimyoviy omillar ta'siriga beqaror, tashqi muhitda 30 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqt davomida saqlanadi, quyosh nurlari va ultrabinafsha nurlanishiga sezgir va dezinfektsiyalash vositalari bilan faolsizlanadi.

**Asosiy qism.**

Qizamiq keng tarqalgan. Kasallik qish-bahor mavsumiyligi bilan tavsiflanadi. Infektsiyaning ombori va manbai kasal odamdir. Bemorlar simptomlar boshlanishidan 1-2 kun oldin va toshma boshlanganidan keyin 4 kungacha yuqumli hisoblanadi. Etkazish mexanizmi aerozoldir, uzatish yo'li havo orqali. Odamlarning tabiiy sezuvchanligi juda yuqori, infektsiyadan keyingi immunitet odatda umrbod bo'ladi. Qizamiqning takroriy infektsiyalari juda kam uchraydi. Klinik ko'rinishlariga ko'ra, qizamiq tipik va atipik (yumshatilgan, abortiv, yashirin va asemptomatik shakllarga) bo'linadi. Og'irlik darajasiga ko'ra engil, o'rtacha va og'ir shakllar ajratiladi. Qizamiqning tipik shakli ko'proq uchraydi. Kasallikning 4 davri mavjud: inkubatsiya, kataral, toshma davri va rekonvalessensiya davri.

Inkubatsiya muddati 9 dan 15 kungacha davom etadi.

Kataral davr 3-5 kun davom etadi.

Bu o'tkir boshlanish bilan xarakterlanadi, umumiy buzuqlik, bosh og'rig'i, fotofobi, ishtahaning pasayishi, uyqu buzilishi, isitma 39 ° C va undan yuqori ko'tarilishi, ko'p miqdorda shilliq va keyin shilliq yiringli oqindi, quruq obsesif yo'tal bilan kechadi. Patognomonik simptom - toshma paydo bo'lishidan 1-2 kun oldin paydo bo'ladigan Filatov-Koplik-Belskiy dog'lari (yonoqlarning shilliq qavatida 1-2 mm diametrli, qizil hoshiya bilan o'ralgan mayda kulrang-oq nuqtalar paydo bo'ladi, kamroq - lablar va

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

milklarda paydo bo'ladi; ular birlashmaydi va so'nggi 2 kun ichida olib tashlanmaydi). Döküntünün paydo bo'lishi bilan dog'lar yo'qoladi va tez orada yo'qoladi. Ekzantema paydo bo'lishidan 1-2 kun oldin yumshoq va qattiq tanglayning shilliq qavatida qizamiq enantema (Forxxaymer belgisi) paydo bo'ladi. Kasallikning 3-4 kunida tana harorati biroz pasayadi, ammo toshma paydo bo'lishi bilan u yana ko'tariladi.

Toshma davri kasallikning 4-5 kunida boshlanadi va 3-4 kun davom etadi. Birlashishga moyil bo'lgan makulopapulyar ekzantemaning ko'rinishi xarakterlidir. Toshma bosqichma-bosqich namoyon bo'ladi: birinchi navbatda quloq orqasida, burun ko'prigida va birinchi kun davomida u yuzga, bo'yinga va yuqori ko'krakka tarqaladi. 2-kuni toshmalar magistral va yuqori qo'llarni, 3-kuni pastki oyoq-qo'llarni va yuqori oyoqlarning distal qismlarini qoplaydi. Döküntünün ko'rinishi kataral hodisalarning kuchayishi, isitma va intoksikatsiyaning maksimal zo'ravonligi bilan birga keladi. Döküntünün elementlari katta, yorqin, makulopapulyar, qichimaydigan, bemorning umumiy holatining yomonlashishi bilan birga keladi. Toshma 1-1,5 hafta davom etadi va kepakka o'xshash qobiq bilan tugaydi.

Rekonvalessensiya davrida (pigmentatsiya davri) bemorning ahvoli yaxshilanadi, tana harorati normallashadi, kataral alomatlar asta-sekin yo'qoladi; toshma elementlari och jigarrang dog'larga aylanib, paydo bo'lgan tartibda o'chadi va yo'qoladi. Pigmentatsiya 5-7 kun ichida yo'qoladi, uning yo'qolishidan so'ng, asosan yuzda kepakka o'xshash peeling paydo bo'lishi mumkin. Giremiyaning birinchi to'lqini kataral davrda va toshma paydo bo'lishining 1-kunida, yuqori nafas yo'llarining shilliq pardalarida qizamiq virusi ko'p miqdorda bo'lganda, eng katta intensivlikka etadi. Döküntünün paydo bo'lishining 3-kunidan boshlab, chiqarilgan virus miqdori keskin kamayadi va 5-kunga kelib u qonda aniqlanmaydi. Viremiyaning ikkilamchi bosqichi - limfa tugunlari, bodomsimon bezlar, jigar, taloq va suyak iligi to'qimalarining makrofag tizimi hujayralarida qizamiq virusining ko'payishi. Bu o'z vaqtida infektsiyaning klinik ko'rinishlariga to'g'ri keladi. Qon va boshqa to'qimalardan virusni to'liq yo'q qilish döküntünün boshlanishidan 1-2 hafta ichida sodir bo'ladi. Hozirgi vaqtda qizamiqda tipik makulopapulyar toshmalar paydo bo'lishi virusga xos hujayrali va gumoral immun javobning effektor bosqichi va qizamiq virusining qon va to'qimalardan tozalanishi boshlanishi ekanligi ma'lum. Qizamiq immunitet darajasining pasayishi bilan anergiya (ikkilamchi immunitet

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

tanqisligi) rivojlanishi bilan tavsiflanadi, bu esa, asosan, nafas olish tizimining asoratlari va surunkali kasalliklarning kuchayishi bilan patogen va opportunistik mikrofloraning faollashishiga olib keladi. Tananing reaktivligi bir necha hafta va hatto oylar davomida sekin tiklanadi. Qizamiqning diagnostikasi keng qamrovli bo'lib, epidemik vaziyatni baholash, vaqt o'tishi bilan klinik kuzatish va laboratoriya tekshiruvlarini o'z ichiga oladi.

Tashxisni laboratoriya tasdiqlash uchun quyidagilar qo'llaniladi: o'tkir davrda leykopeniya, neytropeniya va limfotsitoz ko'pincha kuzatiladigan klinik qon tekshiruvi; serologik usul (ELISA). Tashxisni tasdiqlash uchun bemorning qon zardobida (shuningdek, kasallikka shubha bo'lgan shaxslar) o'ziga xos IgM antikorlarini ajratish muhimdir. Agar bu bemorlarda qizamiq virusiga IgM aniqlansa, shuningdek, qizamiq bo'yicha faol epidemiologik kuzatuv doirasida tekshirilgan isitma va makulopapulyar toshmalar bo'lgan shaxslarda IgG sinfidagi qizamiq virusiga antikorlar titri uchun bir vaqtning o'zida 2 qon zardobida qo'shimcha tadqiqot o'tkaziladi. Tadqiqot uchun qon toshma boshlanganidan 4-5-kunida (1-zardob) va birinchi namuna (2-zardob) olingandan keyin 10-14 kundan kechiktirmay olinadi. Juftlangan qon zardobidagi standart serologik testlarni bir vaqtda o'rganish davomida IgG titrining 4 baravar yoki undan ko'proq oshishi qizamiq tashxisini qo'yish uchun asosdir;

Molekulyar biologik usul (PCR) qizamiq patogenining genotipini aniqlash uchun ishlatiladi. Toshma boshlanganidan boshlab 1-3 kunlarda bemordan tekshirish uchun klinik material namunalari (qon, nazofarengeal tamponlar, miya omurilik suyuqligi, siydik) olinadi. Agar qizamiq ensefalitiga shubha bo'lsa, orqa miya ponksiyoni, so'ngra miya omurilik suyuqligi tahlili o'tkaziladi, bunda limfotsitoz va yuqori protein darajasi ko'pincha miya omurilik suyuqligida aniqlanadi. Asoratga shubha bo'lsa, instrumental tadqiqot usullari (ko'krak qafasi rentgenogrammasi, EKG, ekokardiyografi) qo'llaniladi.

Qizamiqning muntazam profilaktikasi uchun emlash belgilangan vaqtlarda, agar emlashdan keyingi immunitet yo'qolgan bo'lsa, voyaga etganida qayta emlash bilan amalga oshiriladi. Epidemiologik ko'rsatkichlar bo'yicha qizamiqga qarshi emlash bemor bilan aloqada bo'lgan (agar kasallikka shubha qilingan bo'lsa), ilgari qizamiq bilan kasallanmagan, emlanmagan va qizamiqqa qarshi emlash haqida ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga, shuningdek qizamiqga qarshi bir marta emlangan shaxslarga - yoshi cheklanmagan holda amalga oshiriladi. Epidemiologik ko'rsatkichlar bo'yicha

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

qizamiqga qarshi emlash bemor aniqlangan paytdan boshlab birinchi 72 soat ichida amalga oshiriladi. Kasallik o'chog'ining chegaralari kengaygan taqdirda (ish joyida, o'qish joyida, tuman ichida), emlash muddati o'choqda birinchi bemor aniqlangan paytdan boshlab 7 kungacha uzaytirilishi mumkin. Bemor bilan aloqada bo'lgan barcha emlanmagan odamlar zudlik bilan emlashlari kerak. Hozirgi vaqtda qizilchaga qarshi komponentni o'z ichiga olgan va O’zbekistonda ro'yxatga olingan quyidagi vaktsinalar qo'llaniladi: monovalent vaktsinalar [qizamiqga qarshi jonli vaktsina (NPO Mikrogen, Rossiya), Ruvax (Aventis Pasteur, Frantsiya)] va kombinatsiyalangan vaktsinalar [qizamiqga qarshi jonli madaniyat vaktsinasi (NPO Mikrogen, Rossiya); MMR (meales, qizilcha, qizilcha vaktsinasi) - Rossiyada "MMR II" (MerckSharp&Dohme, AQSH) savdo nomi ostida ro'yxatga olingan, parotit, qizilcha va qizamiqga qarshi zaiflashtirilgan jonli vaktsina. Uning to'liq analogi "GlaxoSmitKline", Buyuk Britaniya tomonidan ishlab chiqarilgan "Priorix" (qizamiq, qizilcha, parotit) trivalent vaktsinasidir].

Agar qizamiq aniqlansa, bemor butun yuqumli davr uchun (toshmaning 4-kuniga qadar) izolyatsiya qilinadi. U bilan aloqada bo'lgan va bolalar bilan ishlaydigan bolalar va kattalar (ilgari qizamiq bilan kasallangan; emlangan; qizamiq antikor titri 1:5 yoki undan yuqori bo'lgan seropozitivlar bundan mustasno) boshqa bolalardan 17 kun (yoki Ig yuborilgan bo'lsa - 21 kun) ajratiladi (yoki karantinga olinadi). Qizamiqga qarshi g-globulin faqat inkubatsiya davrining birinchi yarmida qo'llanilganda samarali bo'ladi. Qizamiq bilan og'rigan bemorlarni davolash kasallikning og'irligiga, asoratlarga va birga keladigan patologiyaga qarab qat'iy individualdir. Kasalxonaga yotqizish masalasi klinik (og'ir kurs, noqulay premorbid fon) va epidemiologik (yopiq guruh, yotoqxona, kvartirada izolyatsiya qilishning mumkin emasligi) zaruriy shartlarga qarab hal qilinadi. Asoratlanmagan qizamiq prognoz uchun qulaydir.

Asoratlangan qizamiq bilan og'rigan bemorlar yuqumli kasalliklar shifoxonasiga yotqizilishi kerak. Barcha bemorlarga butun febril davrda yotoqda dam olish tavsiya etiladi. Oson hazm bo'ladigan parhez buyuriladi, bezovta qiluvchi va ekstraktiv komponentlarsiz. Shilliq pardalarni tozalash, simptomatik terapiya, shu jumladan antitussivlar, antipiretiklar va antigistaminlar majburiydir. JSST va BMT Bolalar jamg'armasi qizamiqni davolash uchun A vitaminini tavsiya qildi4. Qizamiq uchun antibiotiklar birga keladigan bakterial infektsiyani davolash uchun patogenetik vosita

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

bo'lib, ular asoratlanmagan hollarda ko'rsatilmaydi. Yallig'lanish asoratlarining mavjudligi antibakterial preparatlarni tayinlash uchun asos yaratadi, ularning tanlovi bakterial agentning sezgirligi bilan belgilanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Qizamiq. JSST faktlar varaqasi № 286. http://www.who.int/mediacentre/factsheets/fs286/ru/

2. Katz S. Qizamiq. VKN. Bolalardagi yuqumli kasalliklar. Ingliz tilidan tarjima qilingan. Ed. D. Mari tomonidan. Moskva: Praktika, 2006; 576–82.

3. Qizamiq bilan kasallangan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha klinik ko'rsatmalar (davolash protokoli). Sankt-Peterburg, 2015. http://niidi.ru/dotAsset/eed9b132-1dc0-4adc-8833-092e5e36fa66.pdf.

4. Yushchuk N.D., ed. Yuqumli kasalliklar. Milliy ko'rsatmalar. Moskva: GEOTAR-Media, 2009; 801–9.

5. Agafonov A.P., Ignatiev G.M., Pyankov S.A., Losev M.V. Qizamiq. Patogen haqida zamonaviy tushunchalar, klinik belgilari, diagnostikasi, oldini olish. Novosibirsk, 2002. 38 b http://medbooks.org/index.

fayllar/kitob/Infekcionnye_bolezni/014469/Agafonov_A.P._i_dr._-_Kor%60. pdf

6. Qizamiq. Margaret Trexler Hessen, MD; Pilar G. Alonso, tibbiyot fanlari doktori; Lindsey Marcellin, MD, MPH 2013 yil 23 avgustda chop etilgan.

7. JSST. Qizamiq va qizilcha laboratoriya diagnostikasi bo'yicha qo'llanma. Ikkinchi nashr, 2006 yil; 17–9. http://www.who.int/ihr/elibrary/manual_diagn_lab_mea_rub_ru.pdf

8. Ferris Klinik maslahatchisi 2015 Ferri, Fred F., MD, FACP Qizamiq (Rubeola),732.e2–732.e3.

9. Kroger AT, Atkinson WL, Marcuse EK, Pickering LK Emlash bo'yicha umumiy tavsiyalar: Immunizatsiya amaliyotlari bo'yicha maslahat qo'mitasining tavsiyalari (ACIP). MMWR Recomm Rep. 2011; 60:1–60.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

# ZAMONAVIY YOSHLAR ORASIDA O‘ZBEK ADABIY TILINI RIVOJLANTIRISH VA TARG‘IB QILISHNING INNOVATSION YO‘LLARI

**Pardayeva Ashirgul Botirovna**

**ANNOTATSIYA:** Har qanday millatning qalbi, o‘zligini anglash mezoni — bu uning tili, ayniqsa, adabiy tilidir. O‘zbek adabiy tili esa asrlar davomida buyuk allomalar, shoir va yozuvchilar tomonidan sayqallangan, xalq ruhiyatini ifoda etuvchi bebaho boylik sanaladi. Afsuski, so‘nggi yillarda yoshlar orasida adabiy tilning o‘rnini turli aralash so‘zlashuvlar, begona iboralar egallayotganini kuzatish mumkin. Bu holat befarq qarashni emas, aksincha, chuqur o‘ylab harakat qilishni taqozo etadi. Shu sababli mazkur maqolada zamonaviy yoshlar orasida o‘zbek adabiy tilini rivojlantirish va uni yurakdan his etishga yo‘naltirish masalalari keng yoritiladi. Mavzuga yangicha nigoh bilan qaralib, tilga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish yo‘llari muhokama qilinadi. Bu borada davlat siyosatida, ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar, ona tiliga bo‘lgan chuqur hurmat alohida e’tiborga molik. Uning tashabbusi bilan 21-oktabr — O‘zbek tili bayrami sifatida nishonlanayotgani, ona tili to‘g‘risidagi qonunlarning kuchaytirilgani — bu nafaqat siyosiy qadriyat, balki milliy o‘zlikka bo‘lgan yondashuvning yorqin namunasidir. Aslida, adabiy til targ‘iboti bu — rasmiy gaplar bilan emas, balki qalbdan chiqqan so‘z, chiroyli nutq, go‘zal ifoda orqali yosh qalblarga yetib boradigan jarayondir. Maqola aynan shunday ruhda yoziladi: adabiy tilni yurakdan his qilishga undash, uni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirib, har bir yosh uchun o‘z tilida faxrlanish hissini uyg‘otishga xizmat qiladi.

**KALIT SO‘ZLAR**: Mobil ilovalar orqali til o‘rganish, til me’yorlari, o‘zbek adabiy tili, adabiy tilni rivojlantirish, yosh avlod va til tarbiyasi, raqamli ta’lim texnologiyalari, tilni o‘rgatishda innovatsiyalar, tilni targ‘ib qilish strategiyalari, til madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar va til, sun’iy intellekt va til o‘rgatish, interaktiv o‘qitish metodlari, til siyosati, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi, o‘zbek tili darslarida kreativlik, tilshunoslik va zamonaviy texnologiyalar, chet tillari ta’siri va adabiy til.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-7

